

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI

**ABDULLA QODIRIY NOMLI JIZZAX DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI**

BOSHLANG'ICH TA'LIM NAZARIYASI VA AMALIYOTI KAFEDRASI

“Himoya qilishga ruxsat beraman”
Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi
fakulteti dekani

_____ dos.M.Rabbimov.

“_____” _____ 2012 y.

5141600 – Boshlang'ich ta'lim va sport-tarbiyaviy ishi ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavr
darajasini olish uchun

Mavzu: Xalq pedagogikasida ustoz-shogird tizimi mavzusida bajarilgan

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Bajaruvchi: Allaberganov T.

Ilmiy rahbar: Jumanazarov U.

Ishni himoyaga tavsiya etaman:

Jumanazarov U

(илмий раҳбар исми ва шарифи)

(имзо)

BMI Boshlang'ich ta'lim nazariyasi va amaliyoti kafedrası
yig'ilishining qarori bilan (Qaror № 10, 4.05.2012 y)
himoyaga tavsiya etilgan.

Kafedra mudiri:

prof.Jumanazarov U.A.

(Ismi va sharifi)

(imzo)

Jizzax - 2012

REJA:

KIRISH.....

I BOB. XALQ PEDAGOGIKASIDA O`QITUVCHI SHAXSI VA UNING BOLA TARBIYASIDA TUTGAN O`RNI.....

1.1. «Qur'oni karim va Hadisi sharifda ilm-fan ahlining jamiyatda tutgan o`rni, aqlning ahamiyati haqida.....

1.2. Xalq pedagogikasida o`qituvchi kasbiga xos bilim, ko`nikma va malakalarni shakllantirish yo`llari. O`qituvchiga qo`yilgan talablar.....

2.3. Xalq pedagogikasida ustoz va shogard, ularning munosabati. Ustoz savod chiqaruvchi, hunar o`rgatuvchi, odob va axloqdan saboq beruvchi, shogardlar ma'naviy olamini shakllantiruvchi shaxsdir.....

2.4. Xalq hayotida, jamiyat rivojlanishida o`qituvchilik kasbi va unga qo`ilgan asosiy baho va mezonlar. O`qituvchining axloqiy sifatleri.....

II BOB. USTOZ-SHOGIRD TIZIMIDA PEDAGOG ODOBI FAZILATLARINI SHAKLLANTIRISHNING O`ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

2.1. Bo`lajak ustoz – hozirgi talabalarning kasbiy-axloqiy va ta'lim-tarbiya jarayonida boshqarish muammolari

2.2. Tajriba-sinov ishlarini tashkil etishdagi pedagogik tamoyillar

XULOSALAR.....

ADABIYOTLAR RO`YXATI

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. O'zbekistonning buyuk kelajagini yaratishda, uni jahonning rivojlangan mamlakatlari darajasiga erishishda evolyutsion rivojlanish yo'li tanlangani, o'zbek xalqiga xos, tarixan qaror topgan umuminsoniy va milliy qadriyatlar, urf-odatlar, an'analar, axloqiy sifatlar va fazilatlar qo'l kelmoqda. O'zbekiston Prezidenti I.A.Karimov: "Men Abdulla Avloniyning "Tarbiya biz uchun yo hayot - yo mamot, yo najot - yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir" degan fikrini ko'p mushohada qilaman. Buyuk ma'rifatparvarning bu so'zlari asrimiz boshida millatimiz uchun qanchalar muhim va dolzarb bo'lgan bo'lsa, hozirgi kunda biz uchun ham shunchalik, balki undan ham ko'ra muhim va dolzarbdir deganida jamiyat taraqqiyoti uchun tarbiyaning naqadar katta ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlagan edi.

Jahonning eng rivojlangan mamlakatlari tarixiy tajribasi shundan dalolat berib turibdiki, ular mustaqillik va taraqqiyot yo'liga qadam qo'yishlari bilan asosiy e'tibor va mablag'larni birinchi navbatda, yoshlarni o'qitish va tarbiyalashga sarflaganlar. Va bunday siyosat tarixiy tajribada o'zini oqladi. Iymon-e'tiqodli, bilimli, axloq-odobli yoshlar, malakali mutaxassislar aql-zakovat bilan ish yuritib, o'z vatanlarining qudratini oshirdilar, o'z xalqlari uchun yuqori turmush darajasini ta'minlay oldilar.

Shuning uchun ham davlatimiz Prezidenti islohotlarning dastlabki bosqichida ta'lim sohasiga alohida e'tibor qaratdi. "Ta'lim to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining qonuni, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ning qabul qilinishi mamlakatimizda ta'lim sohasidagi islohotlarning davlat siyosatiga aylanganligi dalilidir. O'zbekiston Respublikasi hukumati xalq ta'limi sohasida o'rta qo'yayotgan vazifalarni bajarish ko'p jihatdan o'qituvchiga bog'liq. Ta'lim-tarbiyadan ko'zda tutilayotgan maqsadga erishish uchun, o'quvchilarning xilma - xil faoliyatini uyushtirish, ularni bilimli, odobli, e'tiqodli, mehnatkash, barkamol, ishbilarmon inson qilib o'stirish o'qituvchi zimmasiga yuklatilgan.

MBI maqsadi - talabalarda pedagog odobi fazilatlarini shakllantirishning shart-sharoitlarini aniqlash va ularda pedagog odobini tarbiyalashga yo`naltirilgan ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

MBI vazifalari:

1. Ilmiy-pedagogik adabiyotlar, milliy-ma'naviy meros namunalari hamda pedagogika sohasidagi tadqiqotlarni o`rganish orqali talabalarda o`qituvchi odobi fazilatlarini shakllantirishning nazariy asoslarini o`rganish.

2. Pedagogik kasbda o`qituvchi odobining o`rni, pedagogik odob fazilatlarining mazmuni, ularni shakllantirishning o`ziga xos xususiyatlarini aniqlash.

3. Talabalarda o`qituvchi odobi fazilatlarini shakllantirish jarayonini tashkil etish va boshqarishning ilmiy asoslarini ishlab chiqish, odob fazilatlarini shakllanishining modelini yaratish, ko`rsatkichlari va mezonlarini aniqlash.

4. Talabalarda o`qituvchi odobi fazilatlarining shakllanishiga ta'sir etuvchi ob'ektiv va sub'ektiv omillarni, ta'lim-tarbiyaviy ishlarning ta'sirchan shakllari, usul va vositalarini belgilash;

5. Bo`lajak o`qituvchilarda pedagog odobi fazilatlarini shakllantirish tizimining sifati va samaradorligini ta'minlovchi ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

MBI ob'ekti - bo`lajak o`qituvchilarda pedagog odobi fazilatlarini shakllantirishga yo`naltirilgan ta'lim-tarbiya jarayoni.

MBI predmeti – bo`lajak o`qituvchilarda pedagog odobi fazilatlarini shakllantirishning mazmuni, shakl-usullari, vositalari, yo`llari.

MBIning metodologik asoslari: O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O`zbekiston Respublikasining “Davlat tili to`g`risida”gi, “Ta'lim to`g`risida”gi qonunlari, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”, “Pedagogika fani kontseptsiyasi”, Oliy ta'lim Davlat ta'lim standarti, O`zbekiston Respublikasi hukumati va Xalq ta'limi vazirligining ta'limni rivojlantirish to`g`risidagi qaror va farmoyishlari, O`zbekiston Respublikasi Prezidentining nutq va ma'ruzalaridagi o`qituvchilar tayyorlashni takomillashtirish sohasidagi fikrlari, sharq mutafakkirlarining

pedagogik merosi, pedagog olimlarning asarlaridagi umuminsoniy va milliy axloqiy tarbiya nazariyalari, mavzuga oid ilmiy-pedagogik, psixologik, metodik manbalar tadqiqotimiz uchun metodologik asos bo'ldi.

MBI metodlari – nazariy tahlil, kuzatish, suhbat, testlar, anketa so'rovlari tashkil etish, pedagogik ilmiy tajriba, matematik statistika.

MBIning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Talabalarda o'qituvchi odobi fazilatlarini shakllantirishning nazariy va amaliy asoslari o'rganildi;

Pedagogik faoliyatda o'qituvchi odobining o'rni, pedagog odobi fazilatlarining mazmuni, ularni shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlari aniqlandi.

Talabalarda o'qituvchi odobi fazilatlarini tarbiyalash jarayonini tashkil etish va boshqarishning ilmiy asoslari ishlab chiqildi, odob fazilatlarini shakllanishining modeli yaratildi; ko'rsatkichlari va mezonlari belgilandi.

O'qituvchi odobi fazilatlarini shakllantirish jarayoni ilmiy tahlil etildi, talabalarining axloqiy shakllanishiga ta'sir etuvchi ob'ektiv va sub'ektiv omillar aniqlanib, ta'lim-tarbiyaviy ishlarning ta'sirchan shakllari, usul va vositalari, tizimi ishlab chiqildi.

Talabalarda pedagog odobi fazilatlarini shakllantirish tizimining sifati va samaradorligini ta'minlashga yo'naltirilgan ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqildi.

MBIning nazariy ahamiyati: pedagogika nazariyasi, o'qituvchi odobnomasi kurslari bo'lajak o'qituvchini tayyorlash sohasidagi yangi nazariy qarashlar bilan boyitildi, o'qituvchi odobini shakllantirish va rivojlantirish yo'llari belgilab berildi.

MBIning amaliy ahamiyati. Talabalarda pedagog odobi fazilatlarini shakllantirishga oid yaratilgan va ishlab chiqilgan ilmiy-metodik tavsiyalar, ta'lim-tarbiya jarayonida o'qituvchi kadrlar tayyorlashni takomillashtirishga xizmat qiladi.

MBIning tuzilishi. MBI kirish, ikki bob, xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

I BOB. XALQ PEDAGOGIKASIDA O`QITUVCHI SHAXSI VA UNING BOLA TARBIYASIDA TUTGAN O`RNI

1.1. «Qur'oni karim va Hadisi sharifda ilm-fan ahlining jamiyatda tutgan o`rni, aqlning ahamiyati haqida

Ilm-ma'rifatlilik kuch-quvvat manbai, qalbga nur, ko`zga ziyo bag`ishlaydigan buyuk ne'matdir. Shu sababli ham inson hayotda qunt bilan ilmni o`rganishi tufayli aql-zakovati yuksaladi, baxtli hayot uchun kurashadi.

Bizga ma'lumki, inson hayoti uchun muhim bo`lgan ilmu hikmatlarni o`rganishda ota-bobolarimizning faoliyati va ularning yoshlarga ko`rsatgan g`amxo`rliklari beqiyosdir.

Xalq pedagogikasi an'analari, shu jumladan, diniy ta'limot insonlarni ilm-ma'rifatga da'vat etuvchi buyuk kuchdir.

Ilm-fan ahli, o`qituvchilar esa el-yurti uchun xizmatga kamarbasta fidoyi kishilar bo`lib, yoshlarning ongi va qalbiga ziyo bag`ishlashgani uchun ham azaldan e'zozda, hurmat-e'tiborda bo`lib kelgan. Darhaqiqat, qur'oni karim, Hadisi sharifda ham ilm ahli ulug`langan.

Islom harakatni, taraqqiyotni targ`ib qiluvchi, kishilarni harakatga, fikrlashga undovchi, jamiyat taraqqiyotiga tarafdor dindir. Jamiyat esa fikrlashsiz, ilmsiz taraqqiy etmaydi. Shuning uchun ham islom mo`minlarni ilm olishga, da'vat etadi. Bu haqda qur'onda shunday deyiladi: «Aytgin, ilmlilar bilan ilmsizlar teng bo`la oladilarmi, albatta, bu haqda aqlli kishilargina eslaydilar». («Zumar» surasi, 9-oyat)

Qur'onning yana bir oyatida ilimli kishilar Allohning huzurida boshqalarga qaraganda yuqori darajada turishlari alohida e'tirof etiladi: «Alloh taolo sizlardan iymon seltirganlarni va ilimli bo`lganlarning darajasini ko`taradi. («Mujadala» surasi, 11-oyat)

Qur'onning «Oli Imron» surasi, 18-oyatida esa shunday deyiladi: «Alloh, albatta, uning o`zi yagona iloh, undan boshqa ibodatga sazovor zot yo`qligiga shohidlik beradi. Shuningdek, farishtalar va ilm egalari ham bu narsaga adolat bilan shohidlik beradilar».

Yuqoridagi oyatda Alloh ilmi kishilarning shohidligini o'z farishtalarining shohidligi bilan tenglashtirgan. Demak, ilmi kishilarning hurmati Allohning huzurida beqiyos yuqori ekanligiga shubha yo'q.

Qur'onning yana bir surasida ilmsizlar shunday tanqid qilinadi: «Shunday qilib, Alloh ilmsizlarning qalbini berkitib qo'yadi». («Rum» surasi, 59-oyat)

«Yusuf» surasining 76-oyatida esa, ilmning chegarasi yo'qligini ta'kidlaydi: «Har bir ilmlining ustidan undan ham ilmirog'i bor».

Bu surada olimlarni o'z ilmlari bilan mag'rurlanib, kibr-havoga, xudbinlik va manmanlik, yalqovlikka berilmaslikka chaqiriladi.

Yana bir surada: «Ey, parvardigor, ilmimni ziyoda qilgin deb ayt», — deyiladi («Toho» surasi, 114-oyat)

Qur'on kishilarni ko'r-ko'rona ilm olishga emas, balki ongli fikrlab, dalil va hujjatlar asosida fikr yuritishga, ilm olishga da'vat etadi: «Kim Alloh bilan qo'shib boshqa ilohga dalil va hujjatsiz ibodat qilgan bo'lsa, uning hisob-kitobi Allohning huzurida bo'ladi», — deyiladi. («Mu'minun» surasi. 117-oyat).

Qur'onda dalilsiz fikrlar gumon, kuchli hujjati bo'lsa — bu haqiqat deyiladi va odamlarni haqiqiy ilmiy narsalarga suyanishga, gumon va xayollardan uzoqta bo'lishga chaqiriladi.

Gumonning oqibati yomon bo'lishi aytiladi: «Balki zolimlar ilmsiz ravishda havoyi nafslariga ergashadilar». («Rum» surasi, 29-oyat)

Qur'onning «Isro» surasi, 36-oyatida: «O'zing bilmagan narsaga ergashma. Albatta, ko'z, quloq va qalb barcha narsadan so'raladi», — deyiladi. Ya'ni inson qiyomat kunida qulog'i eshitgan, ko'zi ko'rgan, qalbi jo qilgan barcha narsalar haqidagi so'roqlarga javob berishi kerak. Ilm haqiqiy dalil, hujjat asosida hosil bo'lishi, gumonga o'rin bo'lmasligi kerakligi uqtiriladiki, bu fikrlar bugungi kunda ham jamiyatning barcha jabhalarida, shu jumladan, ta'lim-tarbiya sohasida ham o'z qimmatini yo'qotmay, balki katta ahamiyat kasb etayotganini alohida e'tirof etishimiz shart.

Ilm bir narsaga ishonch hosil qilmay turib, taklif qilishdan qaytaradi. Shu ma'noda islom ham ilmda taqlid dushmanidir. qur'onda aql ishlatmay, o'zi ishonch hosil qilmay ko'r-ko'rona taqlid qilish, boshliqlar va yo'l boshlovchilarga ergashish qoralanadi. «Ilm» dyob ishlarni aql yordamida bajarishga aytiladi. Aql esa uchragan narsani tushunib olish qobiliyatidir.

Qur'onda aqlga juda katta e'tibor beriladi va aqlga taalluqli so'zlar 50 marta ishlatilgan. Aqlni ishlatishga chaqirilib, aqlni ishlatmaslik qoralanadi. Chunki ilmning asosi akldir. Akd bo'lmasa, ilmni egallab bo'lmaydi. quronda ilm so'zi 765 marta tilga olinadi.

Hadisi sharifda ham ilm va ilm ahli, uning jamiyatda tutgan o'rni haqida alohida to'xtalib o'tiladi. Kishi ma'naviyati, dunyoqarashining kengligi, bilimlarni qay darajada egallaganligi, o'z bilimi bilan atrofdagilarga, jamiyatga foyda keltiruvchi shaxs bo'lib etishishida bilim eng muhim omil deb ko'rsatiladi. «Ilm qilish farzdir. Tolibi ilmga har bir narsa istig'for aytadi, hatto dengizdagi baliqlar ham»³. Bilimsizlik kishilarni nodonlikka, jaholatga olib keladi, ilmsiz jamiyatda taraqqiyot bo'lmaydi, ilmsizlik razolat va qabohatdir, deyiladi hadislarda.

«Ilmga amal va rioya qiluvchi bo'linglar, uni faqat hikoya qiluvchi bo'lmanglar», — deyiladi. Darhaqiqat, ilmsizlik va nodonlik jamiyatni inqirozga uchratadi. Islomda ikki xil ilm haqida fikr yuritiladi: biri huquqiy, diniy yo'l-yo'riqlar ilmi bo'lsa, ikkinchisi dunyoviy ilmlardir. Ikkalasida ham bilimga ega bo'lish har bir mo'min uchun farz hisoblanadi. Hadisda ilmni takrorlab borish zarurligi, bilim olishga ishtiyoqi yo'q kishilarga bilim berib uni zoe qilmaslik uqtiriladi: «Ilmning ofati — unutishdir. Uni noahil kishiga gapirish esa uni zoe qilishdir».

«Ilmu hunarni Xitoyda bo'lsa ham borib o'rganinglar» deb da'vat etiladi va ilm kishilarining fahm-farosatli, zukko, xotirali bo'lishiga asos bo'lishi alohida ta'kidlanadi.

141-hadisda: «Olim bo'l (ilm beruvchi bo'l) yoki ilm o'rganuvchi bo'l, yoki ilmga va ilm ahliga muhabbatli bo'l. Beshinchisi bo'lma, halok bo'lasan» deyiladi. Demak, ilmsizlik insonni ham, jamiyatni ham halokatga olib boradi. Yoki 268-

hadisda ilmning ahamiyati shunday ta'riflanadi: «Bir soat ilm o'rganish bir kechalik nafl ibodatdan yaxshi, bir kunlik dars esa uch oy tutilgan nafl ro'zadan afzaldir», — deyiladi. «Ilm ikki xildir: biri qalbdagi ilm bo'lib, u foydalidir. Ikkinchisi tildagi ilm bo'lib, u tangri huzurida banda zarariga dalil bo'ladi», — deyiladi bir hadisda va uni faqat inson uchun, jamiyat uchun foydali ishlarga sarflashga chaqiriladi.

Yana bir hadisda faqat ilmni o'rganishning o'zi kamlik qilishi, unga albatta amal qilish zarurligi uqtiriladi: «Ilmga nisbatan go'yo cho'pon kabi posbon bo'linglar, lekin ilmni faqat rivoyat qiluvchi bo'lmanglar». Ilm ahliga esa, ilmni boshqalarga o'rgatish savob ekanligi, xudbin bo'lmaslik kerakligi ta'kidlanadi: «Ilmni o'rganib, so'ng uni boshqalarga o'rgatmaslik, go'yoki molu dunyoni yig'ib, uni sarf qilmay, ko'mib qo'yish bilan barobardir».

Janobi payg'ambarimizning ahli ayollari Ummu Salama rivoyat qiladilar: «Hasan yosh bola edi, hazrati Rasulullohning kosalaridagi suvni ichib qo'ydi. Rasuli akram savol qildilar: «Mening kosamdagi suvni kim ichdi?» «Hasan ichdi», — deb javob qilinadi. Shunda janobimiz: «Hasan qancha suv ichgan bo'lsa, barchasi ilm bo'lsin», deb duo qildilar.

Qur'oni karimning «Alaq» surasining dastlabki oyatlari eng birinchi nozil qilingan oyatlar bo'lib, bu oyatlar odam bolalarini jaholat va xurofotdan qaytarishga, ilm-ma'rifatga da'vat etadi: «Inson yaratgan roziligiga qanday erishish mumkin?» — degan savolga shu oyatlar aniq javob beradi: faqat o'qish va o'rganish bilan. Shuning uchun ham Rasullulloh «Ilm istash har bir muslim va muslima uchun farzdir» deb marhamat qilganlar. Ilm egallash insoniy burch, yuksak mas'uliyatdir. Ilm Allohni tanish, o'zlikni anglash, dunyoni idrok etishning muhim vositasidir.

«Muhtaram payg'ambarimiz ilm olayotib yoki ilm berayotib vafot etgan kishini shahid, deganlar. Ilm insoniylik toji. Inson ilm bilan sharaf topadi. Ilm odamni yuksaltirib, undan yodgorlik qoldiradi. Ilm tufayli qoldirilgan, odamlarga manfaat beradigan yodgorlik shu olimning vafotidan keyin ham nomai a'moliga yozilib turadigan savob yomg'irini yog'dirib turadi.

Suqrot hakim «O`qib-o`rganmay turib ham foyda va zararning farqiga boraman», degan odamni tentak deb bilmoq kerak», — deganlar.

Alloh odamni ilmi qilib yaratgan. Alloh Ibrohim alayhissalomga «Ey, Ibrohim, men olimman va olimlarni yaxshi ko`raman», — deydi.

Alloh maxluqlardan insongagina ilmni ravo ko`rdi. Hech qaysi maxluqqa bermagan ma`rifat kiyimlarini odam bolalariga nasib etdi. Ilmga intilgan kishi eng yaxshi insondir. Ilmdan yuz o`girish — insoniylikdan yuz o`girish demakdir.

1.2. Xalq pedagogikasida o`qituvchi kasbiga xos bilim, ko`nikma va malakalarni shakllantirish yo`llari. O`qituvchiga qo`yilgan talablar

O`qituvchilik eng qadimiy va boqiy kasblardan hisoblanadi. O`qituvchilik kasbi ham kishilik jamiyati tarixida tarbiyaning paydo bo`lishi, ya'ni insonlar yurish-turishi, xatti-harakatlari, mehnatlari jarayonida to`plagan dastlabki tajribalari, urf-odatlarini yoshlarga o`rgatishlari natijasida, aqliy, axloqiy, ilohiy bilimlarni o`rgatish natijasida yuzaga keldi. Chunki yozuv ixtiro qilingach, o`qish, yozishni o`rganish uchun tashkil etilgan dastlabki maktablarda yozuv, o`qishni o`rgatuvchiga zaruriyat tug`ildi. Ta'lim-tarbiyaning ijodkori ham, ularni kamolotga etaklovchi, axloq-odobni o`rgatuvchi to`ng`ich ustoz ham o`qituvchidir.

O`zbek xalq pedagogikasida murabbiy, ustoz eng hurmatli, ulug` inson sifatida e'zozlanadi: «Otang bolasi bo`lma, odam bolasi bo`l», «Ustoz otangdan ulug`», «Ota-ona bolani dunyoga keltiradi, o`qituvchi esa uni tarbiyalaydi» kabi maqollarni ham fikrimizning isboti sifatida keltirishimiz mumkin. O`zbek xalq pedagogikasida ota-onaning ibrat namunasiga katta e'tibor beriladi. Birinchi ustoz onadir deyiladi.

O`rta Osiyo, Ozarboyjon, Eron, O`rta va Yaqin Sharq xalqlarining eramizdan oldingi P-U1 minginchi yillardagi qadimiy dini Zardushtiylik ta'limotida odoblilik, mehnatsevarlik, rostgo`ylik, saxovatlilik fazilatlarini tarbiyalashga katta ahamiyat berilgan. Bu davrdagi o`qituvchilar ulamo-kohinlar bo`lib, ular jamiyat hayotida muhim mavqega ega bo`lganlar. Maktabda kichik yoshdagi bolalarni o`qitish jarayonida ko`rsatmali qurollarni, hikoya qilish va suhbat usullarini keng

qo'llashgan. Bu davrda o'qituvchi yozish va o'qishni o'rgatgan. Tarbiya-axloqiy, diniy tarbiya, jismoniy tarbiya berilgan. O'g'il bolalar 7 yoshdan o'qitilgan. Bu yoshda ularga maxsus «muqaddas ko'ylak» kiydirilgan, ular muallim bilan yonma-yon quyoshga qarab turishgan, muallimga qo'shilib «Avesto»dagi ezgulik va yaxshilik ma'budasiga madadkor kuchlarni ulug'lovchi duolarni aytishgan. Ya'ni: «Men zardushtiylik diniga sodiq bo'lishga va'da beraman. Men yaxshi so'zlar va yaxshi ishlarga ishonaman», — deb sajda qilgan. Bunday mashg'ulotlar kuniga besh marta takrorlangan.

Maqsad: ezgulikka — Axuramazdaga e'tiqod, yovuzlikka — Axuramanuga nafrat hissini tarbiyalash bo'lgan. Tarbiyalovchi muallim mashkdarni bolalar bilan birga bajargan.

Xalq pedagogikasining negizini tashkil etuvchi islom ta'limotida «Sadaqaning afzali — mo'min kishi ilm o'rganib, so'ng boshqa mo'min birodarlarga o'rgatishidir», — deyiladi. Demak, muallimlik eng savob ish ekan.

Imom Buxoriyning «Al Jome' as-sahih» asarining «Ilm kitobi» bo'limi ilm egallash fazilati va xosiyatlari, ilm o'rganish va o'rgatish odobi to'g'risida bahs etadi. Bu erda ilm egallash odobining 54-qoidasi haqida hikoya kilingan. Bu qoidada Muhammad payg'ambarimizning ilm o'rganish va o'rgatishga doir pand-nasihatlarini bayon etilgan.

Musulmon mamlakatlarida maktab va madrasalarda dars beruvchi muallim, mudarris va talabalar bir necha asrlar mobaynida bu pand— nasihatlarini tahlil qilish natijasida o'qituvchi va talabalar, o'quvchilarga quyidagi didaktik talablar qo'yilganligi, pedagogik-axloqiy g'oyalarni singdirish maqsadi turganligini e'tirof etamiz:

1. Ilm beruvchining ovozi tinglovchilarning hammasiga eshitarli, me'yorida bo'lishi kerak.

Ilm mazmunini «aytgan edilar, xabar beradilar, guvohlik beradilar» kabi samimiy, yoqimli so'zlar bilan ifodalash lozimligi.

Biror ta'limiy va tarbiyaviy masalani o'rta tashlab, muhokama, munozara yo'li bilan o'rgatish.

Ilm o`rganish va o`rgatish uchun ma'lum kunlarni qat'iy belgilab qo'yish.

Ilmni fahmlab, teran tushunib, anglab o`rganish, esda mustahkam sakdash.

Teran tushunilgan, yaxshi anglab olingan ilmlarni yod olish.

Ilm o`rgatish jarayonida bolaga lozim hollarda tanbeh berish mumkinligi.

Kishi ilmni o`zi o`rganib, o`zgalarga ham o`rgatishi, ilmga o`zi amal qilishi zarurligi.

Ilmning susayishi, ilmga e'tiborsizlik jamiyatni muqarrar inqirozga etaklashini tushunish.

10. Ilmni oson, engil qilib, odamlarni bezdirmay o`rgatish.

Ilmni so`rab bilib olish, o`zi uyalsa, boshqa birov orqali so`rab bilib olish lozimligi.

Ilmga doir savol bergan odamga so`raganidan ko`proqjavob qaytarish.

13. Bilim tinglovchiga tushunarli bo`lsin uchun bir gapni bir necha marta (3 bor) qaytarishning afzalligi.

Ilmni ishtiyoq bilan o`rganishning afzalligi.

Ayollarga ham ilm o`rgatish lozimligi.

16. Eshitganni yaxshiroq bilib olish, mukammal tushunish uchun qayta so`rash joizligi.

Ilmni bilgan kishi bilmaganga, (tushungan kishi tushunmaganga), eshitgan eshitmaganga etkazishi lozimligi.

Ilm berayotgan kishining so`zlariga jim turib quloq solish.

19. Odamlarga juda oz bilishlarini anglatish.

20. Ilmni tushunishni, ilm olishni istamagan kishilar o`rniga ilmni tushunadigan kishiga o`rgatish o`rinli ekanligi.

Islom ta'timotida bayon etilgan bu didaktik talablar va g`oyalar musulmon maktablarida o`qituvchi va o`quvchilar o`rtasidagi muomala, munosabatlarni tartibga soluvchi axloq va pedagogik qoidalar sifatida amaliyotda qo`llanilgan. Bu qoidalar Sharq allomalarining pedagogik g`oyalari uchun ilmiy zamin vazifasini bajargan.

O`rta Osiyoda yashagan allomalar o`qituvchilik kasbiga xos bilim, ko`nikma, malaka va uni shakllantirish yo`llariga doir ta`limotlarni yaratdilar. Masalan, «Muallimi soniy» nomi bilan mashhur bo`lgan qomusiy olim Abu Nasr Forobiy (873— 930): tarbiya jarayoni tajribali pedagog, o`qituvchi tomonidan tashkil etilishi, boshqarilib turishi lozim, chunki har bir odam ham baxtni va narsa-hodisalarni o`zicha bila olmaydi. Unga buning uchun o`qituvchi lozim, — deydi. Uning fikricha, yoshlarga ta`lim-tarbiya beradigan ustoz-muallim shogirdiga nisbatan juda qattiq zulm qilishga intilmasligi yoki haddan tashqari ko`p yon berishi ham kerak emasligini uqtiradi. Chunki, ortiqcha zulm shogirda ustozga nisbatan nafrat uyg`otadi, juda yumshoq bo`lsa, shogird ustozni mensimaydi va u beradigan bilimdan soviydi.

Forobiy tarbiya ikki usulda — ixtiyoriy va majburiy usulda amalga oshirilishini ta`kidlaydi. qaysi usulda tarbiyalash tarbiyalanuvchining fe'l-atvoriga bog`liq, deydi. Masalan, tarbiyalanuvchi fan va hunar o`rganishga intilsa, uni rag`batlantirish, ular o`zboshimcha va itoatsiz bo`lsa, majburiy usulni qo`llash kerakligini aytadi. Azaldan xalqimiz musulmon maktablarida ishlaydigan muallimlardan ziyrak, aqlli va axloqli bo`lishni talab etgan. Xalq aqlli kishilarni dono deb atagan.

Forobiyning ta`kidlashicha, akdli kishi — o`tkir zehnli, idrokli, fazilatli bo`lishi, o`zining aqli va idroki, qobiliyatini yaxshi ishlarga yo`naltirishi kerak. U «Aql to`g`risida»gi risolasida o`zida 12 xislatni birlashtirgan kishini axloqli odam deb hisoblaydi. Bu xislatlar quyidagilar:

Odamda barcha a'zolar mukammal taraqqiy etgan bo`lmog`i.

Barcha masalalarni tez va to`g`ri tushuna oladigan bo`lishi.

Xotirasi baquvvat bo`lmog`i.

Zehni o`tkir bo`lmog`i.

So`zlarni aniq va ravon bayon eta oladigan.

O`qishga, bilimga muhabbatli bo`lmog`i.

Me'yorni biladigan va unga amal qila oladigan.

Haqiqatni va haqiqat tarafdorlarini sevadigan.

Yoag`onchilarga nafrat bilan qaraydigan.

g`urur va vijdonni qadrlydigan.

Mol-dunyoga mukkasidan ketmagan.

12. Adolatni sevadigan, zulm o`tkazuvchilarga nafrat bilan kdraydigan, qat'iyatli, qo`rqmas va jasur bo`lishi kerak.

Demak, axloqli kishiga qo`yilgan bu talablar, aynan o`qituvchiga ham taalluqlidir. Chunki xalqimiz o`qituvchidan eng avvalo axloqli bo`lishni talab etgan va bundan keyin ham shunday bo`lib qoladi.

Forobiy «ta'lim-tarbiyada, yoshlarni mukammal inson qilib tarbiyalashda, ayniqsa, aqliy va axloqiy tarbiyaga alohida e'tibor beradi. U bilim, ma'rifatni albatta, yaxshi axloq bilan bezatmoq lozim. Bo`lmasa, kutilgan maqsadga erishilmaydi, bola etuk bo`lib o`smaydi», degan fikrni bildiradi.

Forobiy asarlarida ta'chim-tarbiyaning umumiy metodologik masalalari, o`qituvchi va o`quvchining o`zaro munosabati, o`quvchiga ijtimoiy muhit orqali ta'sir ko`rsatish yo`llari, o`quvchining xislatlari va metodologik masalalar o`z ifodasini topgan.

Abu Ali ibn Sino (980—1037) o`zining «Tib qonunlari» asarida bolani 6 yoshdan o`qitish va tarbiyalash uchun muallimga topshirish kerak deydi. Ibn Sino ta'lim jarayonida o`qituvchiga quyidagi qoidalarga amal qilish kerakligini uqtiradi:

O`qitishda oddiydan murakkabga qarab borish.

Bolaning qobiliyat va mayllarini hisobga olish.

Bolaga kuchi etadigan mashqlarni bajartirish.

4.Ta'limni jismoniy mashqlar bilan qo`shib olib borish.

Ibn Sino o`qituvchiga quyidagi talablarni qo`yadi:

Sahovatli.

Dono.

Iymonli.

Axloqiy va aqliy tarbiya usullarini yaxshi biladigan.

Irodasi kuchli bo`lishi.

Sog`lom.

Pok, halol.

Xushmuomala bo`lmog`i.

9. Bolani o`rni bilan rag`batlantirishni ham, jazolashni ham bilishi kerakligi.

10. Lozim bo`lganda bolani maqtashi, yoki qoralay olishni biladigan bo`lishi kerak.

Ibn Sino bolani yakka-yakka o`qitishdan ko`ra jamoada ta'lim berishni afzal deb hisoblaydi. Bu afzalliklar quyidagilardan iborat:

bolaning ilmga intiluvchanligi ortadi;

sheriklarining bilimiga havasi keladi;

o`z bilimidan g`ururlanadi;

boshqalardan orqada qolmaslikka intiladi;

5) birga o`qiganda bolaning nutqi o`sadi, xotirasi mustahkamlanadi;

bir-biri bilan inoqlashadi;

bir-birini hurmat qilishga o`rganadi;

munozaraga o`rganadi;

o`zaro musobaqalashadi;

10) o`z huquq va burchlari haqida fikr almashadi. Ta'lim-tarbiyani bu tarzda tashkil etish bolalarning xulqini yaxshilashga, axloq mezonlarini egallab olishlariga yordam beradi.

Ibn Sino o`qituvchiga yana quyidagi talablarni qo`yadi:

1) muallim avvalo bolaga «qur'on» ta'limotini o`rgatishi;

2) bolaning nimaga qiziqishini, qaysi kasbga yoki san'atga mayli borligini;

3) bilim va hunarni hayot kechirish vositasi deb bilishi;

4) bola diqqatining xususiyatlarini, qiziqish va qobiliyatlarini e'tiborga olib, unga qaysi hunar yoki san'atni o`rganishi mumkinligini ko`rsatishi kerak.

Ibn Sinoning fikricha, bola tarbiyasi bu — izchil va asta-sekin amalga oshiriladigan tartibdan iboratdir. U bolaning turli yoshi bilan bog`liq bo`lgan tarbiya usullari haqida ham fikr yuritadi.

O`qituvchi tanlaganda axloqiy va aqliy tarbiya usullarini yaxshi egallagan, aqlli, irodali, dono, g`amxo`r va dinga ishongan o`qituvchi bo`lishiga e`tibor berish kerakligini uqtiradi. U o`qituvchi bolalarga ta'lim berishdan oldin o`quvchilarning xulq-atvorini o`rganishi va bilimlarini gekshirib ko`rishi kerakligini aytadi. Ibn Sino o`quvchining shaxsiy xislatlariga, ruhiyatiga e`tibor berib, shularga asoslangan hoG`.da ta'lim-tarbiya ishlarini olib borish kerakligini va bu fikri bilan umuminsoniy pedagogik qadriyatlarni boyitish kerakligini aytib o`tadi. Kimki o`z xatosini tuzata olsa, u boshqalarning tarbiyasi haqida g`amxo`rlik qila olishi mumkin. Boshqa odamni tarbiyalamoqchi va uning axloqini tuzatmoqchi bo`lgan tarbiyachi, avvalo, uni yaxshi o`rganishi va barcha kamchiliklarini yaxshi bilib olishi kerak. Aks holda tarbiyachi bemorning kasalini bilmay turib, uni tuzatishga kirishgan odamga o`xshab qoladi. Uning fikricha, tarbiya tarbiyalanuvchini yomon axloqiy xislatlardan ozod qilish, unga yaxshi axloqiy fazilatlarni singdira borish jarayonida amalga oshiriladi.

Sharq allomalaridan yana biri Kaykovus (XI asr) o`zining «qobusnoma» asarida ota-ona va muallimning bolaga muomala-munosabati haqida: «Ota-ona bolalariga ilm va axloqiy fazlamlarni singdirishi uchun bolani muallim qo`li bilan jazolashi kerak» deb uqtiradi. «Har ilmni o`rgatuvchi muallimlar ta'lim uchun bolani ursalar, sen, ota shafqat ko`rgazgil, mayli ursinlar, nedinkim, yosh o`g`lon adabni va ilmni tayoq bilan o`rganur va o`z ixtiyori bilan o`rganmas. Ammo farzand beadab bo`lsa, o`z qo`ling bilan urmagil, muallimlarning tayog`i bilan qo`rqitgil. Bolalarga muallimlar adab bersunlar, toki sendin o`g`lingning ko`nglida gina qolmasun». Sharq allomalaridan yana biri — Burhoniddin Zarnujiy (XI asr). U Marg`ilondagi madrasada qonunshunoslikdan dars bergan. U o`z pedagogik tajribasiga asoslanib, «O`quvchiga ta'lim yo`lida qo`llanma» nomli pedagogik asar yaratdi. Bu sharq mamlakatlarida keng tarqalgan. Unda o`quvchi va muallim muomala odobiga doir talablar qo`yilgan:

- 1) o`rganish uchun fanlar orasidan eng muhimini tanlash;
- 2) muallim tanlaganda, eng avvalo, bilimli, eng olijanob, tajribalisini tanlamoq;

Qanoat, sabr-muruvvatni egallashga, bilimlarni takrorlashga e'tibor berish;
o`quvchi muallimdan o`rganayotgan fani, kasbidan to`la qanoat hosil qilishi;
bilimlarni mukammal o`zlashtirish uchun aql-farosatlilik, kuchli istak,
chidamlilik, o`rgatuvchi o`qituvchi, bilim olish uchun etarli vaqt bo`lishi;

o`qituvchi sofdil, pok fe'l-atvorli bo`lishi, yalqov, ishyoqmas, ezma
bo`lmasligi kerak;

7) o`quvchining muallimga, ustozga hurmati baland bo`lishi undan oldin
yurmasligi, uning joyiga o`tirmasligida, mashg`ulotlar paytida unga yaqin
o`tirishida bilinadi.

Sharq allomalaridan yana biri Sa'diy Sheroziy (1184—1292) dir. Uning
«Guliston», «Bo`ston» asarlari eski maktablarda darslik sifatida o`tilgan.

«Guliston» asarining «Tarbiyaning ta'siri bayonida» deb nomlangan ettinchi
bobida tarbiyachilik faoliyati, tarbiyashunoslik ilmi, o`qituvchi odobi, uning
qonun-qoidolari haqida hikoyatlar keltiriladi:

Ta'lim-tarbiya berish uchun bolada avvalo, qobiliyat bo`lishi kerak.

Kishi yoshlikdan ilm-hunar egallashi kerak.

Muallim bolalarni odobli kilib tarbiyalashi, ularga andisha bilan gapirishi,
maqbul harakat qilishni o`rgatishi lozim. Chunki ularning gaplari ham, harakatlari
ham elning nazarida bo`ladi.

Muallim tili achchiq, badjahl, fosiq, qattiqqo`l yoki juda yuvosh ham
bo`lmasligi kerak.

Mabodo tarbiyalanuvchi muallimningto`g`ri nasihatiga quloq solmasa ham,
tarbiyachi bilganini unga aytishi lozim.

Tarbiyaning natijasi, samarasi bolaning tabiatiga bog`liq.

Agarda muallim bo`lsa, beozor, Darsxonani qilgay bolalar bozor.

Tilla-kumush bari chiksa ham toshdan, Barcha toshda oltin bo`lmog`i gumon.

O`zbek mutafakkirlaridan yana biri Alisher Navoiydir (1441 — 1501).
Navoiy o`zining «Mahbub ul-qulub» asarida o`z davridagi musulmon
maktablarining yutuq va kamchiliklarini tahlil etadi.

U o`qituvchiga quyidagi talablarni qo`yadi:

1) muallim o`z shogirdlarini va o`qitayotgan fanini yaxshi bilishi, sevishi;

o`ziga va o`quvchiga talabchan bo`lishi;

o`qituvchi jamiyatda obro`li, hurmatga loyiq bo`lishi;

shogirdlar muallimni hurmat qilishlari, e'zozlashlari kerak;

mudarris ota-onasining mansabi, boyligiga qarab bolaga muomala qilmasligi kerak;

muallim bolalarga bilgan narsalarni o`rgatishi, bilmagan ilmlarini o`rgatishga urinmasligi kerak;

gerdayish, manmanlik, ta'magirlik, nodonlik o`qituvchiga yot bo`lishi kerak;

8) muallim yaramas ishlardan, nopoklikdan yiroq bo`lishi kerak;

mudarrislar yomon ishlardan, fisqu fasoddan o`zlarini tiya bilishlari zarur;

bolalarga jabr qilib, azob berib, kaltaklashlari mumkin emas.

Navoiyning fikricha, muallim bolalarga ta'lim berishda ko`p aziyat chekadi, mashaqqatlarni boshidan kechiradi. Shuning uchun ham shogird ustozdan umrbod qarzdor ekanliklarini sezishlari, ularni hurmat qilishlari kerak:

Haq yo`linda kim senga bir harf o`kitmish ranj ila, Aylamak bo`lmas ado oning haqin yuz ganj ila. Sharq allomalaridan yana biri Ulug`bek Mirzo bo`lib, uning pedagogik fikrlarining rivojlanishida o`zidan oldin o`tgan ulug` mutafakkir olim va shoirlarning, ayniqsa, Rudakiy, Beruniy, ibn Sinoning fikrlari kuchli ta'sir etdi. U Rudakiyning ta'lim-tarbiya masalalari, tarbiyaning hayotdagi ahamiyati, tarbiyada ota-ona va o`qituvchining tutgan o`rni haqidagi fikrini, Beruniyning o`qishda ma'lumdan noma'lumga, oddiydan murakkabga o`tish fikrini, ibn Sinoning tarbiyada muallimning tutgan o`rni, bola tarbiyasi, uning sog`ligi haqidagi qarashlarini ijodiy davom ettirdi va madrasa hayotiga tatbiq etdi. U ayniqsa, aqliy tarbiyaga alohida e'tibor qaratadi.

U bilimni faqat kitobdan emas, faoliyat orqali egallash zarurligini aytadi. Ulug`bek talabalarning o`qishdan sovishiga sabab o`qituvchidir. Shuning uchun oldin o`qituvchining o`zi tarbiyalanmog`i kerak, bilimlarni puxta egallamog`i

kerak deydi. Bilimni egallash atrof-muhitni anglash, bilish uchun kerak. Shundagina o`qituvchi o`quvchilarda ijodkorlik va mustaqil mutolaa qilish malakasini hosil qiladi.

Ulug`bekning fikricha, o`quvchi hayotida darsliklar muhim ahamiyatga ega. Darslik sodda, ravon, o`qishli bo`lishi kerak. Lekin darslik qanchalik yaxshi bo`lmasin, ta'limda o`qituvchi asosiy o`rinda turadi. Chunki u o`z bilimi, tarbiyachilik mahorati, yaxshi insoniy fazilatlari bilan ularga namuna bo`ladi. Ulug`bek maktab va madrasalarda berilgan nazariy bilimlarni talabalar amaliyotda tatbiq eta olishlari kerak deb biladi. Shuning uchun ham mudarris va toliblar bilan rasadxonada amaliy mashg`ulotlar o`tkazadi.

Ulug`bek axloqiy tarbiya, mehnat tarbiyasiga ham alohida e'tibor beradi. Uning madrasasidagi talabalar u erdagi har bir tadbirda, binoni tozalash, ko`kalamzorlashtirishda faol ishtirok etar edilar. Ulug`bek yoshlardan mehnatda va hayotda chidamli, sabotli bo`lishni talab etadi. Buning uchun o`qituvchining o`zi chidamlilik va mehnatsevarlik timsoli bo`lishi shart deydi. Ta'lim-tarbiyaning muvaffaqiyati o`qituvchiga bog`liqdeb biladi. O`qituvchilarga hurmat va ehtirom ko`rsatadi, ularni moddiy va ma'naviy tomondan qo`llab-quvvatlaydi. Madrasalarda o`quv tizimini isloh qilib, o`qish muddatini 15-20 yildan 8 yilga qisqartiradi.

O`z ilg`or pedagogik qarashlari bilan ta'lim-tarbiya sohasiga o`z hissasini qo`shgan Sharq mutafakkirlaridan biri XV asrda Eronda tug`ilib, O`rta Osiyoda yashagan Jaloliddin Davoniydir Uning «Axloqi Jaloliy» risolasida ijtimoiy-siyosiy masalalar, axloq, ta'lim-tarbiya va xulq-odob qoidalari o`z aksini topgan. Davoniyning fikricha, bola tarbiyasi bilan juda erta shug`ullanish kerak. Chunki yoshlikda bolaning zehni o`tkir bo`ladi, narsa, hodisalarni tez qabul qilish qobiliyatiga ega bo`ladi. Davoniy: «Bola qalbi toza taxtaga o`xshaydi. Unga har qanday tasvirni osonlikcha chizish mumkin», — deydi. Davoniy bolalarga ta'lim berishda muallimlar asosiy rol o`ynashini ta'kidlab, ularni «ma'naviy ota» deb ataydi.

U ta'limda qat'iyatli, sabot-matонатli bo'lishni talab etadi. Davoniy qo'pol va badjahl muallimlarni qoralaydi. Muallim aqlli, bola tarbiyasidan xabardor, yaxshi xislatli bo'lishi kerakligini uqtirib: «Agar ota — bolaning jismini jismoniy jihatdan tarbiyalasa, muallim uning ma'naviy tarbiyasi kamolotiga sababchidir. Agar kishining ruhi o'z badaniga qanchalik yaqin tursa, muallim ham tarbiya sohasida unga shunchalik yaqin turadi», — deydi. Davoniy ota bilan muallimni qiyoslar ekan, u muallimning tarbiyalash usuli otaning usulidan yuqori ekanligini aytadi: «Iskandardan so'rabdilar: otani yaxshi ko'rasanmi yoki ustozni? U ustozni deb javob beribdi. Chunki ota o'tkinchi hayot sababchisidir».

Ma'rifatparvar shoir Furqat tarbiyaning asosiy usuli ishontirish ekanligini ta'kidlaydi. Ishontirishga aytish, tushuntirish va hayotda bor misollarni ko'rsatish orqali erishiladi. Furqat bolalarga muhabbat va mehribonlik bilan munosabatda bo'lishni talab etadi. Bolalarga zo'rlik, qo'rqitish yo'li bilan ta'sir etishni ma'n etadi.

1.3. Xalq pedagogikasida ustoz va shogard, ularning munosabati. Ustoz savod chiqaruvchi, hunar o'rgatuvchi, odob va axloqdan saboq beruvchi, shogardlar ma'naviy olamini shakllantiruvchi shaxsdir

Xalqimizda ona, Vatan, xalq, farzand, do'st qatorida ulug'lanuvchi, buyuk ehtiromga loyiq yana bir kishi borki, bu — ustoz. Xalqimizda «Ustoz otangdan ulug'» degan naql bor. Xalqimiz ustozni bu qadar ulug'lashi bejiz emas, albatta. Chunki ota-ona farzandni dunyoga keltirsa, tarbiyalasa, murabbiy unga ta'lim-tarbiya beradi, yo'l ko'rsatadi. Ustoz — bebaho, ulug', g'amxo'r, mehribon. Xalq o'rtasida ko'pni ko'rib, ko'pni bilgan, mehnatda chiniquqan, el orasida o'z aql-zakovati bilan tanilgan, o'z tajribasi, bilimini boshqalarga, yoshlarga o'rgatgan kishilar ustoz deb tan olingan va o'zgacha e'zozlangan. Xalqimiz shogirdsiz ustozni mevasiz daraxtga o'xshatadi.

Hazrat Navoiy o'z bilimini, hunarini birovga o'rgatishdan qizg'angan, shogird tayyorlamagan kishilar haqida shunday yozadi:

Hunarni asrabon netgumdir oxir,

Olib tuproqqamu ketgumdir oxir.

Darhaqiqat, kishining qandayligi uning qancha umr ko`rganligi bilan emas, balki o`zidan keyin qanday nom qoldirgani bilan o`lchanar ekan.

Xalqimizda ustoz-shogirdlik an'anaviy tartiblaridan biri — ustozlarning shogirdlarga fotiha berish marosimi. Bu marosim deyarli barcha kasblarda bir xil o`tgan.

Shogirdlikka odatda bola 8-10, ba'zan 6-7 yoshdan olingan. Uni ota-onasi kelib, muayyan bir ustozga topshirgan. Ota ustozga «Go`shti sizniki, suyagi bizniki» degan. Yigit kasbini o`rganib, o`zi mustaqil ravishda bilimdon bo`lganda yoki mahsulot tayyorlash darajasiga etganda ota-onasi (etim bo`lsa, ustozning o`zi) fotiha ziyofatini o`tkazishi shart.

Ustoz shogirdining mahsulotini yoki bilimini imtihon qilgan. Imtihondan o`tsa, fotiha marosimiga ruxsat bergan, bo`lmasa haydab yuborgan. Ziyofatga kasb ustalaridan tashqari, domla ham chaqirilgan.

Ziyofatda issiq ovqatlar va shirinliklar tortilgan. Ziyofatdan keyin oqsoqol yangi kiyimlar kiygan shogirdni davraga olib chiqqan va har ikkalasidan rozilik so`ragan. Ustoz o`rgatganiga, shogird xizmatiga rozilik bildirishgan. Ziyofat so`ngida shogird ustoziga sarpo kiydirgan.

Xalqimizning unutilib ketilayotgan ana shu an'anasini qayta tiklash, yoshlarni o`z ustozini hurmat qilish, e'zozlashga o`rgatish, ustozlarning ham shunday e'zozga loyiq bo`lishiga intilishlariga erishmoq kerak. Demak, xalqimizning ana shu go`zal an'anasi — ustoz-shogirdlik an'anasiga tayangan holda hozir ham bu borada quyidagi holatlarga (masalalarga) alohida e'tiborni qaratmoq kerak:

1. Bolani juda yoshligidan ma'lum bir kasbga yo`naltirmoq kerak.
2. Ustozning mas'uliyatini va mavqeini oshirmoq kerak.
3. Shogird tanlash ixtiyoriy bo`lmog`i va sinovning qanday bo`lishini ham ustozning o`zi belgilashi kerak.
4. Imtihon qat'iy talablar asosida, kasb ustalari ishtirokida bo`lishi kerak.

Sa'diyning «Guliston» asarida ustoz-shogird munosabati haqida shunday hikoyat keltiriladi: «Bir odam kurash san'atida zo'r mahorat qozonadi. U uch yuz oltmish bir hiylani ishlatib kurashadi. Shogirdlaridan biriga 359 hiylani o'rgatadi. Ammo bir hiylani o'rgatishni paysalga solib yuradi. Shogird qudratli bo'ldi. Bir kuni u podshoh huzuriga kelib: «Ustozimning birgina afzalligi bor. Yoshi ulug'ligi va menga tarbiya berganligidir. Kuch va mahoratda men undan qolishmayman», — deydi. Bu so'z nopshoga yoqmaydi. Ustoz va shogirdga kurash tushishini buyuradi. Shogird mast fildek kuchli, o'ziga ishongan. Ustoz shogirdining kuchi ortiqekanligini anglaydi. U pinhon saqlagan hiylasini ishlatib kurashadi va uni engadi. Podshoh ustozga sarpo beradi. Shogirdga «O'z ustozingga bevafoqlik qilib, uni mag'lub etaman deb maqtanding, lekin aytgan so'zingning ustidan chiqa olmading?». Shogird: «Ey, podshohi olam, ustozim kuch bilan mendan ustun kelgani yo'q, balki ko'p vaqtdan beri menga o'rgatmay, yashirib yurgan bir hiylasi tufayli meni mag'lub eta oldi», — dedi. Ustoz: «Bu hiylani ana shunday bir kun uchun saqlab qo'ygan edim, chunki ulamolar: «Do'st do'stga bir kuni agar dushmanlik qilsa, o'zingni mag'lub eta olajak kuch bermagil», — deganlar. Shogirdidan jafo ko'rgan ustoz, shunday degan ekan:

Yoki vafo yo'qdir olamda, Yoki kishi qo'llamas bu zamon, O'zimdan o'q otish o'rgangan kishi, Bukun ko'kragimni qilmoqchi nishon.

Husayn Voiz Koshifiy esa, ilmlarni egallash jamiyat rivoji uchun kerak. Shuning uchun ilm o'rgatgan ustozlarni hurmat qilish, e'zozlash har bir shogirdning burchi ekanligini uqtiradi:

Faromush qilmasangiz haqqi ustoz, Ul ongingdan durur ilmingga bunyod. Agar ustozingga mehning yo'q o'ldi, Degilkim, ilmim mani mavq o'ldi. Kishikim, qildi ustoziga xizmat, Zamon o'tmadi, topti ul izzat.

1.4. Xalq hayotida, jamiyat rivojlanishida o`qituvchilik kasbi va unga qo`ilgan asosiy baho va mezonlar. O`qituvchining axloqiy sifatlari

Kishilarning bilimi, amaliy malakalarisiz jamiyat taraqqiyotini tasavvur etib bo`lmaydi. Darhaqiqat, buyuk pedagog Avloniy «Taraqqiyot ilmdandur», deb bejiz aytmaganlar, albatta.

Avloniy: «Ilm bizni jaholat qorong`usidan qutqarar, madaniyat, insoniyatni ma`rifat dunyosiga chiqarur, yomon fe'llardan, buzuq ishlardan qaytarur. Yaxshi xulq, odob sohibi qilur. Butun hayotimiz, salomatligimiz, saodatimiz, maishatimiz, himmatimiz, g`ayratimiz, dunyo va oxiratimiz ilmga bog`liqdur», — deb ilmning xalq hayotida, jamiyat rivojlanishida tutgan o`rnini alohida e'tirof etadi. Yana shuni alohida ta'kidlash kerakki, ilm o`z-o`zidan paydo bo`lmaydi. Uning ijodkori va tarbiyachisi o`qituvchidir. O`qituvchi o`quvchilarni bilimli qilish uchun, avvalo, ularning aqlini charxlaydi, fikrini tarbiyalaydi.

Zero, bu haqda Avloniy: «Fikr tarbiyasi eng kerakli, ko`p zamonlardan beri taqdir qilinib kelgan, muallimlarning diqqatlariga suyangan, vijdonlariga yuklangan muqaddas bir vazifadir», — deydi.

Yana A.Avloniy bu haqda shunday yozadi: «Fikr insonning sharofatli, g`ayratli bo`lishiga sabab bo`ladir. Bu tarbiya muallimlarning yordamiga shu darajada muhtojdirki, fikrning quvvati, ziynati, kengligi muallimning tarbiyasiga bog`liqdur». Dars ila ikkisi bir-biridan ayrilmaydurg`on, birining vujudi biriga joylashg`on.

Bu haqda yurtboshimiz I.A.Karimov shunday deydilar: «Demokratik jamiyatda bolalar, umuman, har bir inson erkin fikrlaydigan etib tarbiyalanadi. Agar bolalar erkin fikrlashga o`rganmasa, berilgan ta'lim samarasi past bo`lishi muqarrar. Albatta, bilim kerak».

Demak, jamiyat taraqqiyotini, xalq hayotini ilmsiz tasavvur etib bo`lmas ekan, ana shu taraqqiyotni harakatga keltiruvchi kuch, yoshlarga ilm ziyosini taratuvchi quyosh o`qituvchi ekanligini unutmasligimiz kerak.

Xalqimiz ustoz-shogirdlik munosabatini, ya'ni ustozning shogirdga mehri-yu, shogirdning ustozga hurmat-ehtiromini eng yuksak, eng pokiza xislat, ma'naviy

kamolot, komillikka etkazuvchi olijanob fazilatlarning asosiysi deb biladi va bu munosabatni ota-bola, ona-bola munosabatiga o`xshatadi. Darhaqiqat, ustoz ham xuddi ota kabi shogirdining unib-o`sisini, kamolotga erishuvi, ilm-ma`rifat cho`qqilarini zabt etishiga yordam beradi. O`zining umrini, sog`ligini, butun borlig`ini, tajriba va bilimini shogirdining kelajagi uchun sarf etadi. Yutug`idan quvonadi, kamchiliklaridan kuyinadi, shogirdi uchun zahmat chekadi.

Sohibqiron bobomiz Amir Temur o`z ustozlari Said Barakani nihoyatda e'zozlaganlar. Alisher Navoiy ham ustozlari Lutfiy, Kamol Turbatiy, Sayid Hasan Ardasher, Xo`ja Anzorlarga hurmatlari goyat baland bo`lgan. Hatto, «Astrobod fitnasi»dan keyin Hirotga qaytgan Navoiy Husayn Boyqarodan ustozlarining qabrida «jo`rubkashlik» qilib yurishga ruxsat berishlarini iltimos qilganlar. Bu buyuk bobomizning o`ta kamtarliklaridan va o`z ustozlariga bo`lgan beqiyos ehtiromlaridan dalolat beradi.

Buyuk olim, podshoh, astronom Ulug`bek Mirzoning nomi Evropaga va Evropa orqali butun dunyoga tarqalishiga ham uning sevimli shogirdi, taniqli olim Ali qushchi sababchi bo`lganligi sir emas.

Xalqimizning bu go`zal an'anasi xalq og`zaki ijodida ham ifodasini topgan. Buni quyidagi misollarda ko`rish mumkin:

Ustoz ko`rmagan shogird har maqomga yo`rg`alar. Ustozlar aqli — donolar naqli. Ustoz — oy, shogirdga berar chiroy. Ustoz — quyosh, yoshlarga bo`lar bosh. Ustoz o`giti — kamolot kaliti.

Ko`pchilik xalq dostonlarida ham ustoz-shogirdlik an'anasi o`zining yorqin ifodasini topgan:

Mehrlardan gilam qilib to`shayin, Shogirdlarga mehribondir, ustozlar. Gavharim deb qo`shig`imga qo`shayin, Nur ustiga nur bergandir, ustozlar. Odamzodning ustozini so`rashar, Ustoz ko`rgan shogird deydi ming yashar. Ustozlarni ustun bilgan bu bashar, Zaru himmat bera olgan ustozlar.

(Abduqodir baxshi. «Ustozla» termasi)

Ustozim qo`shiqqa bir ummon edi, Shogird tushganlarga mehribon edi, Menga doston ta'lim aylagan edi, So`z gavharin ustozimdan o`rgandim1.

(Xalq shoiri Rahmatilla Yusuf o'g'li)

Ustozlarga hurmat-ehtirom xalq baxshilari, ertakchilari, qo'shiqchilarining barchasida uchraydi. Xalq og'zaki ijodida ustoz-shogirdlik munosabatlari, ularning hunar bobida bellashuvlari, o'z ustozidan o'tib ketgan shogirdlar mahoratini tasvirlovchi: «Ikki naqqoshning ishi», «Sirli gilam», «Vafo», «Shogird», «Baxil usta», «Ustozdan o'tgan shogird», «Donishmand ustoz», «Ustozimning nabirasi», «Ustoz va shogird» kabi afsona, rivoyat va ertaklar bag'oyat ko'p va tarbiyaviy ahamiyatga egadir. Bundan tashqari badiiy adabiyotda ham xalqimizning ustoz-shogirdlik munosabatini aks ettiruvchi go'zal an'alarini ko'plab uchratish mumkin. Masalan, Mirmuhsinning «Me'mor» romanida buxorolik mashhur me'mor Najmiddin Buxoriyning shogird tanlashda o'ziga xos sinovi bor ekan. U shogirdlikka da'vogar bo'lib kelgan yigitni qahraton qishda sovuq bir hujrada qoldirar ekan. Hujrada bitta to'nka va bir chelak suvdan boshqa hech narsa bo'lmas ekan. Ertalab hujrani ochganda me'mor ahvolga qarab, yigitni shogirdlikka olgan yoki olmagan. Me'mor nimani sinovdan o'tkazgan? Yigitning aql-farosatini. Aql-farosatli bo'lsa, chelakdagi suvni erga sepgan. Muzlagan erda to'nkani yumalatib ertalabgacha yugurib chiqqan, harakat qilgan. Aql-farosati bo'lmasa, sovuqda muzlab qolgan. Xalq pedagogikasida xalqimizga xos an'analarning deyarli hammasida shogird tanlashda asosan uning aql-farosati sinovdan o'tkazilgan.

Beruniy bilim olishda tolibi ilm va ustozlarga poklikka rioya etishni uktiradi. U jamiyatning ravnaqi ma'rifatning rivojiga bog'liq degan g'oyani ilgari suradi. Bilim olish uchun inson, avvalo, axloqli bo'lishi kerak deydi. Yuksak axloqlilik komillikning muhim mezoni ekanligini ta'kidlaydi.

Ilm bilan shug'ullanuvchi kishilar, jumladan, o'qituvchilar yomon urf-odatlardan, hirsdan, noo'rin raqobatdan, ochko'zlikdan, shon-shuhratdan saqlanishi zarurligini uqtiradi.

Beruniy barcha axloqiy xislatlarni yaxshilik va yomonlik kabi ikki turga bo'ladi: u axloqlilikning belgilari sifatida yaxshilik, to'g'rilik, adolat, kamtarlik, saxovat, olijanoblik, do'stlik, hamkorlik, mehnat va hunar egallash, poklikka, go'zallikka intilishni o'rgatadi.

Navoiy ta'lim-tarbiya ota-ona va o'qituvchi tomonidan olib borilishi kerak deydi. U bolalarga jismoniy jazo berish kerak emas, ularga xushmuomala bo'lish kerakligi va bunda me'yordan oshmaslik zarurligini uqtiradi. Navoiy o'qituvchi talabchan bo'lishi kerakligi, lekin me'yorni bilishi zarurligini aytadi. U: «qobiliyatli larni tarbiya qilmaslik zulmdir va qobiliyatsizga tarbiya hayf. Uni tarbiya qilmaslik bilan nobud qilma», — deydi. U: «O'qituvchi o'z shogirdlarini ham, o'z fanini ham sevishi kerak. O'ziga ham, shogirdlariga ham talabchan bo'lishi kerak», — deydi.

Fitrat ham xuddi Beruniy kabi o'qituvchining axloqini birinchi o'ringa qo'yadi: u axloqi buzuvchi kishilarni maktabda muallimlik vazifasigagina emas, balki maktab qorovulligiga ham yaqinlashtirmaslik kerak deb biladi.

Furqat bolalarni tarbiyalashda asosiy usul ishontirish ekanligini ta'kidlaydi.

Ahmad Donish o'qituvchilik kasbi haqida fikr yuritganda axloq masalasiga katta e'tibor berganini ko'ramiz. U o'qituvchini talabalarga kuchli ta'sir etuvchi deb biladi. Shuning uchun u o'qituvchilarning nopok niyatda bo'lishi g'oyatda zararlidir. Chunki ular o'zlaridagi axloqiy buzuvchiliklarni yosh avlodga tarqatadilar deb uqtiradi. U ham o'qituvchining axloqiy qiyofasini birinchi o'ringa qo'yadi. O'qituvchi o'z ustida ishlashi, o'quvchiga ko'proq bilim berishi kerakligini uqtiradi. Ahmad Donish o'qituvchilik kasbiga juda katta talab qo'yadi. U o'qituvchini yoshlar o'rtasida ilm, ziyo sochuvchi ma'rifatparvar timsoli deb biladi va ushbu xislatga ega bo'lgan murabbiy ustozlarni ulug'laydi.

Yuqoridagi misollardan ko'rinib turibdiki, xalqimiz, allomalarimiz ota-bola munosabatlarining tarbiyaviy ta'siridan ham ustoz-shogirdlik munosabatlarining ta'siri kuchli ekanligi qayta-qayta e'tirof etishadi.

II BOB. USTOZ-SHOGIRD TIZIMIDA PEDAGOG ODOBI FAZILATLARINI SHAKLLANTIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

2.1. Bo'lajak ustoz – hozirgi talabalarning kasbiy-axloqiy va ta'lim- tarbiya jarayonida boshqarish muammolari

Insonni shakllantirish muammosi nihoyatda murakkab va ko'p qirralidir. Bu muammoning quyidagi jihatlari hozirgi zamon pedagogika fanida anchagina samarali tadqiq etilmoqda:

- pedagogik jarayon yo'naltirilgan ta'lim-tarbiyaning istiqbolli modeli, kasbiy, ma'naviy-axloqiy shakllanganlikning nisbatan ideal holati kabi muammolar ustida tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Chunki o'quvchilar xulqining u yoki bu darajadagi tavsifi, ularda shaxsiy sifatlar shakllanganligining mavjud darajasi aniqlanib, mo'ljaldagi ideal darajasini loyihalashtirish nazarda tutiladi;

- ta'lim-tarbiyaning samarali vositalari, shakl, usullari tizimini yaratish; belgilangan maqsadga erishish uchun zarur bilimlarni tanlash va tadbirlar tizimini ishlab chiqish;

- shaxsda shakllantirish talab etiladigan zaruriy sifatlar, xulq-odatlarni shakllantirish jarayonining xususiyatlarini psixologik-pedagogik jihatdan o'rganish;

- ta'lim-tarbiya jarayoniga jalb etiladigan o'quvchilar tarkibining o'ziga xos xususiyatlarini sotsiologik-psixologik jihatdan tahlil qilish;

- o'quvchilarda ma'lum sifat va xususiyatlar shakllanganligini baholash mezonlari, ko'rsatkichlarini ishlab chiqish;

- ta'lim-tarbiya jarayonining borishini nazorat qilishning samarali tizimini - ta'lim jarayoni monitoringini yaratish kabilar.

Yuqorida keltirilgan masalalardan har birining “salmog'i”ni aniqlash, ularni yaxlit bir tizim - “majmua”ga birlashtirish - ta'lim-tarbiya ishlarini samarali boshqarish muammosi doirasida hal etiladi. Ta'lim jarayonini samarali boshqarishning mohiyati shundaki, o'qitishning qulay vosita va usullarini qo'llash orqali mo'ljallangan natijaga erishishdan iborat. Ta'lim-tarbiya ishlari muayyan

izchillik asosida, tizimli tashkil etilsagina ko'zlangan natijaga erishish mumkin bo'ladi. Bizning farazimiz shundan iboratki, pedagogika o'quv yurtining talabalarida pedagog odobi fazilatlarini shakllantirish ta'lim-tarbiya jarayonining asosini tashkil etishi lozim. Kasbiy-axloqiy tarbiyani bunday tashkil etish talabalarda atrofdagi borliqqa o'qituvchiga xos faol hayotiy nuqtai nazar, namunali odob me'yorlarini egallash ko'nikmasini shakllantiradi.

Kasbiy-axloqiy ta'lim-tarbiyani samarali tashkil etish uchun: 1) kasbiy-axloqiy shakllanganlikning talab etiladigan ideal holatini aniq tasvirlash, asoslab ifodalash; 2) talabalar kasbiy-axloqiy shakllanganlik darajasining mavjud holatini aniqlash; 3) kasbiy-axloqiy shakllanganlikning mavjud holati bilan ideal holat orasidagi tafovutni aniqlab, uni bartaraf etish yo'llarini ko'rsatish; 4) mavjud holatni istalgan ideal sari o'zgartira oladigan aniq yo'llar, vositalar, ish usullari, shakllarini belgilash; 5) ta'lim-tarbiya va amaliyot ta'sirida sodir bo'layotgan o'zgarishlarni nazorat qilish, qiyoslash, zarur bo'lganda tuzatishlar kiritish lozim.

Shuning uchun ham ta'lim-tarbiya jarayonini samarali boshqarish muammoning uchta jihati: talabalarning kasbiy-axloqiy shakllanganlik darajasi qanday bo'lishi kerak; mavjud holati qanday; degan savollarga javob topgan holda uni istalgan ideal tomon qanday o'zgartirish mumkinligiga e'tibor berishni talab etadi.

Kasbiy-axloqiy jihatdan shakllangan mutaxassis qanday bo'lishi kerak, degan savolga aniq, to'g'ri javob topish bu sohadagi ko'pgina muammolarning echimini topishga yordam beradi. Darhaqiqat, kasbiy-axloqiy jihatdan shakllangan mutaxassisning imkoniyatlari ma'lum darajada real yoki noreal; ko'p qirrali yoki bir yoqlama bo'lishi mumkin. Masalan, kasbiy-axloqiy jihatdan shakllangan mutaxassis ideali noreal, ya'ni, amalda erishib bo'lmaydigan darajada bo'lsa, nazariy jihatdan ta'lim-tarbiyaning samaradorlik darajasi yuqori bo'lmaydi; chunki bunday yuqori ideal darajasiga sanoqli talabalargina erishishlari mumkin. Aksincha, ideal oddiy, soddalashtirilgan bo'lsa ko'pchilik talabalar bunga osongina, maxsus ta'lim-tarbiyaviy tadbirlarsiz ham erishishlari mumkin, bunda samaradorlik birmuncha yuqori bo'ladi, lekin uning ahamiyati nimada? Agar ideal

mavhum bo'lsa, kishining xulqi, hatti-harakatlari uchun uning ta'siri, samarasi kam bo'ladi. Agar kasbiy-axloqiy jihatdan shakllangan mutaxassisideali bir yoqlama bo'lsa, unda bo'lajak mutaxassisda ayrim kasbiy sifatlar takomillashib, boshqalari rivojlanmay qolaveradi.

Ta'lim-tarbiyaviy jarayonida kasbiy-axloqiy shakllangan mutaxassisning muayyan ko'nikma va malakalarini baholash mezonlari tizimini ishlab chiqishga asos bo'ladi. Juda mavhum, noreal idealni amalda baholab bo'lmaydi va bu talabaning kasbiy-axloqiy darajasini ob'ektiv baholashni qiyinlashtiradi. Aksincha ideal aniq, real bo'lsa, talabaning kasbiy-axloqiy hatti-harakatlarini qiyoslash va ob'ektiv baholashga imkoniyat tug'iladi. Lekin bu yo'lda ham ayrim qiyinchiliklarga duch kelish mumkin. Bunda belgilangan mezon juda oddiy, engil bo'lishi va talabada ayrim zarur sifatlar rivojlanmay, o'z holida qolib ketishi mumkin.

Pedagog odobini shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish uchun mo'ljallangan ideal masalasi o'ta muhim bo'lgani uchun pedagog odobi fazilatlari shakllanish modeli masalasini talabalarda o'qituvchi odobiga xos sifatlar misolida quyida batafsil ko'rib chiqamiz.

Pedagog odobi o'quvchi hamda o'qituvchilarning o'zaro munosabatlarida namoyon bo'ladi. Bunday yondashuv bir qadar cheklangan nuqtai nazar ekanligini ta'kidlash joiz, zero o'qituvchining kasbiy axloqi o'quvchilar bilan muloqot jarayonidagina namoyon bo'lmaydi, balki uning butun faoliyati davomida birinchi darajali ehtiyoj sifatida ifodalanadi. Axloqiy tarbiya bilan pedagogik odob tarbiyasi o'rtasida murakkab o'zaro bog'liqlik munosabatlari mavjud.

Pedagog odobi tushunchasi o'qituvchi dunyoqarashning hayotiy tizimini anglatadi. Unda insonning kasbiy barkamolligi ijtimoiy taraqqiyotning oliy ne'mati va mezoni hisoblanadi. Pedagog odobi tushunchasining mazmuni axloqiylik bilan birga iqtisodiy, siyosiy, huquqiy jihatlarni ham o'z ichiga oladi. Masalan, pedagog odobi tushunchasi demokratik fuqarolik jamiyati sharoitida: ijtimoiy insoniy munosabatlarni siyosiy sohada - demokratik munosabatlarni; O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida belgilangan shaxsning qadr-qimmatini hurmatlash,

uning daxlsizligi, o'z qobiliyatlarini erkin rivojlantirish, namoyon etish kabilarni o'zida mujassamlantiradi. Axloqning boshqa toifalariga nisbatan pedagog odobi tushunchasining qo'llanilish doirasi juda keng.

Bizning fikrimizcha, axloqiy ta'lim-tarbiyaning tarkibiy qismi sifatida pedagog odobi fazilatlarini shakllantirishda ikki yo'nalishdagi aloqador tushunchalarni tahlil qilish maqsadga muvofiqdir: birinchisi-jamiyatning o'qituvchi shaxsiga munosabati; ikkinchisi – o'qituvchi shaxsining jamiyatga munosabati. Insonning insonga munosabati ikkinchi guruh aloqalar doirasiga kiradi. Kasbiy-axloqiy ta'lim-tarbiya jarayonida ular qisman qamrab olinadi, xolos.

Yuqorida bayon etilganlar pedagog odobi fazilatlarini shakllantirishni ta'lim-tarbiyaning alohida sohasi sifatida ajratishni taqozo qiladi. Ayniqsa, pedagogika o'quv yurtlari ta'lim tizimi uchun bu juda muhim , chunki o'qituvchilik kasbi uchun o'quvchilar haqida g'amxo'rlik qilish pedagog odobining asosini tashkil qiladi.

Bu, o'z navbatida kasb odobiga yo'naltirilgan ta'lim-tarbiyaning mazmuni qanday bo'lishi lozimligini aniqlashni talab etadi. Chunki ta'lim-tarbiya jarayoni bo'lajak o'qituvchilarda pedagog odobi fazilatlarini shakllantirishga yo'naltirilishi va o'quv jarayonining natijasi ideal bilan qiyoslanishi lozim. Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, bu masala pedagogikaga oid tadqiqotlarda etarlicha yoritilmagan.

Pedagog odobi fazilatlarini shakllantirish muammosini ishlab chiqish odoblilik namoyon bo'lishi talab etilgan muhitning barcha jihatlarini qamrab olishi zarur. Bunda har doim o'qituvchi odobi fazilatlarini shakllanish holatini tasvirlash kerak. Buning uchun kasb odobi fazilatlarini shakllanish modelini ishlab chiqish zarur. Faqat shundagina taklif qilinayotgan ideal ta'lim-tarbiya tizimining asosiy qismiga aylanadi.

Biz, avvalo, pedagog odobi fazilatlarini shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim-tarbiya tizimini ilmiy jihatdan asoslashni maqsadga muvofiq deb hisobladik:

Jamiyatning o'qituvchi shaxsiga munosabati - jamiyatda shaxsning kamol topishi va uning haq-huquqlari haqidagi tasavvurlari vositasida o'qituvchi odobini shakllantirishga xizmat qiladigan bilim va tushunchalar taqdim etiladi. Shaxsning haq-huquqlari tushunchasi adolat, tenglik, ozodlik, erkinlik, baxt-saodat tushunchalariga asoslanadi. Bu tushunchalar jamiyatda o'qituvchi odobining ijtimoiy, ma'naviy va huquqiy jihatlarini aniqlashga xizmat qiladi. Bu tushunchalarning mohiyati O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning mustaqillik mafkurasiga doir asarlari, nutqlari, ma'ruzalarida, milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar risolasida bayon qilingan. Milliy mustaqillik sharoitida bu tushunchalar umuminsoniy va milliy mazmun kasb etadi.

Adolat, adolatparvarlik tushunchasida ijtimoiy tuzumning har bir kishiga o'z salohiyati, qobiliyati va imkoniyatlarini namoyon etish va o'stira olishga imkon yaratishga doir tasavvurlari aks etadi. Jamiyat bilan o'qituvchi o'rtasida bunday aloqa ijtimoiy hayotda o'zaro tenglikka asoslangan munosabatlar qaror topganda samarali bo'ladi. Tenglik tushunchasi jamiyat o'zining har bir a'zosiga shaxs sifatida shakllanishi uchun qulay shart-sharoitlar yarata olish imkoniyatiga egaligiga doir tasavvurlarini aks ettiradi.

Erkinlik tushunchasi har bir kishi ob'ektiv zaruratni anglashiga asoslangan o'z e'tiqod va maqsadlariga mos ravishda harakat qilish imkoniyatiga egaligini bildiradi. Baxt-saodat tushunchasi kishining ongli hayoti qanday bo'lishi kerakligi, yashashdan ko'zlangan maqsad, hayotning mazmuni nimadan iborat ekanligi haqidagi tasavvurlarni aks ettiradi. Bu tushunchalar birgalikda axloqiy qarashlar nuqtai nazaridan jamiyatning shaxsga munosabatini etarli darajada to'liq tavsiflaydi.

Insonning kasbiy-axloqiy shakllanish jarayoniga nisbatan "rivojlanish" tushunchasi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Inson ijtimoiy munosabatlar mahsuli degan g'oyaga binoan pedagogika fanida uning shakllanishi quyidagi uch xil munosabatlar ta'sirida sodir bo'lishi ta'kidlanadi. 1) atrof-muhit; 2) jamiyat a'zolari; 3) o'z-o'ziga nisbatan munosabatida namoyon bo'ladi. Biologik imkoniyatlar insonning jismoniy rivojlanishi uchun zamin yaratsa, ijtimoiy ,

ta'limiy shart-sharoitlar shaxsning ma'naviy-axloqiy kasbiy rivojlanishi uchun zamin bo'la oladi. Har bir insonning barkamol shaxs sifatida shakllanishida uning faoliyati, tarixiy-madaniy, ma'naviy qadriyatlarni egallaganlik darajasi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

O'qituvchi shaxsining jamiyatga munosabati murakkab va ko'p qirralidir. U, yuqorida keltirilgan uch xil munosabatlarni o'z ichiga olish bilan birga, ular tarkibiga kiradigan tushunchalar yordamida yanada oydinlashadi.

Atrof- borliqqa munosabat: 1) Vatan; 2) mehnat; 3) tabiatga munosabatlarni o'z ichiga oladi. Bu tushunchalarning har birini yana bir nechta mayda qismlarga ajratish mumkin, lekin ko'rsatilgan yo'nalishlar tadqiq etilayotgan kasbiy-axloqiy ta'lim-tarbiya hodisasining muhim jihatlarini qamrab oladi.

Vatanga munosabat - avvalo uning ilg'or ijtimoiy yo'nalishlarini his etish, Vatanga e'tiqod qo'yish, uning yutuqlaridan quvonishni taqozo qiladi. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, qonunlarida belgilangan huquq, burch, vazifalarga amal qilish; bu sohada O'zbekiston xalqlarining ongli ishtiroki, faolligi, har bir fuqaroning undan manfaatdorligi nazarda tutiladi.

Vatanga munosabat shuningdek, uning shonli tarixi, xalqimizning milliy-madaniy, ma'naviy qadriyatlariga munosabat, milliy til vatan tabiatiga, qadimiy yodgorliklarga, shahar, qishloqlariga, mahallaga, O'zbekistonda istiqomat qilayotgan boshqa millat, elat vakillariga nisbatan bag'rikenglik va hurmatni o'z ichiga oladi.

Mehnatga munosabat - shaxsning jamiyatga munosabatining eng muhim ko'rsatkichi, mehnatga munosabat orqali kishi jamiyatning rivojlanishiga o'z hissasini qo'shadi. Inson mehnati ko'p qirrali hodisa: u ongli mehnat, mas'uliyatli ish, unumli mehnat va boshqalardan iborat. O'zbekiston demokratik jamiyati taraqqiyotining hozirgi bosqichida har bir fuqaroning mehnati ijodiy xarakterda bo'lishi, mehnat intizomiga qat'iy amal qilish o'ta muhimdir. Intizomli bo'lish insonning ichki hayotiy ehtiyojiga aylanmog'i zarur. Ijodkorlik insonning qalb amri sifatida bu ishni kechagidan yaxshiroq bajarish, mavjud texnologiyalarni

yangilashga faolroq kirishish, kelajagi buyuk davlatni yaratish ishtiyoqi bilan yashashni talab etadi.

Tabiatga munosabat jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida Orol fojeasi va boshqa ekologik muammolar globallashib borayotgan paytda kasbiy-axloqiy ta'lim-tarbiyaning eng muhim jabhasi bo'lib qoldi. Bunday sharoitda har bir insonning hatti-harakati, xulqi, qabul qiladigan qarorlari o'ta mas'uliyatli bo'lishi zarur. Bu haqda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov: "Tabiat va inson o'zaro muayyan qonuniyatlar asosida munosabatda bo'ladi. Bu qonuniyatlarni buzish o'nglab bo'lmas ekologik falokatlarga olib keladi", - degan edi.

Xullas, tabiatga munosabat, hozirgi davr taqozo etayotganidek, oqilona, tejamli, ehtiyotkorona bo'lmog'i lozim.

Keyingi yillarda ekologik ta'lim-tarbiya muammolari ko'plab tadqiqotlarning ob'ektiga aylandi.

Boshqa kishilarga munosabat insonlararo aloqada xulq-odob fazilatlari namoyon bo'lishining muhim jihatidir. Boshqa kishilarga munosabat muammosini tadqiq etishda masalaning ikki jihatiga e'tiborni qaratish maqsadga muvofiq; 1) qarindoshlari, yaqin kishilari; 2) atrofdagi boshqa kishilarga munosabatlar shakllanishining o'ziga xos xususiyatlarini tahlil qilish.

Muammoni bunday tasniflashning sababi shundaki, yaqinlar va begonalarga bo'lgan munosabat bir-biridan keskin farq qilishi mumkin. Shunday odamlar borki, ular uchun o'z uyidagilar, yaqin qarindoshlari ko'ziga juda yaxshi odamlar bo'lib ko'rinadi, ularga nisbatan g'amxo'r, kechirimli, yaxshi muomalada bo'ladilar, ular bilan munosabatda o'zidagi barcha yaxshi sifatlarni namoyon etadilar. Boshqa kishilar, begonalarga nisbatan muomala-munosabatda butunlay o'zgarib qoladilar. Ularga nisbatan qo'pol, qattiqqo'l, shafqatsiz, yomon munosabatda bo'ladilar. Ayrim odamlarda buning mutlaqo aksini kuzatish ham mumkin. Ular boshqalar uchun, umum jamoa ishi uchun jon kuydiradilar, bunday odamlar ko'pchilikning maqtoviga sazovor bo'ladilar. Bu toifadagilar yaqinlariga nisbatan loqayddirlar, oilada ular o'z yaqinlariga befarq, ularning qiyinchiliklari, ruhiy kechinmalariga

e'tiborsizlik bilan qaraydilar. Bunday oilaning bolalari bezorilik, qonunbuzarlik holatini sodir etsa, odamlar hayron bo'lib: "shunday ota-onaning farzandi-ya" deb taajjubga tushadilar.

Begonalarga munosabat ham o'z navbatida ikki guruhga ajratiladi: birinchisi, norasmiy aloqalar (tanish-bilishlik, oshna-og'aynilik, do'stlik aloqalari); ikkinchisi, rasmiy aloqalar (ishlab chiqarish, kasbdoshlik aloqalari).

Boshqalar bilan do'stona aloqalar, odatda, bir-birini shaxsan yoqtirish, shaxsiy yaqinlik asosida hosil bo'ladi va o'zaro xayrixohlik, yaxshilik qilish bilan tavsiflanadi. Kasbiy, ishlab chiqarish asosida o'rnatilgan aloqalar murakkab xarakterga ega. Bunday aloqa bir tomondan kishidan xayrixohlikni, boshqalarni hurmat qilishni talab etsa, boshqa tomondan kasbiy vazifalarni qanday bajarayotgani, har bir kishining umum jamoa ishiga qo'shgan hissasi bilan belgilanadi. Afsuski, odamlar ko'pincha bunga e'tiborsiz bo'ladilar.

Har bir kasbning o'ziga xos xususiyati bilan bog'liq holda, xayrixohlik, yaxshilik qilish munosabatlari ham bir-biridan ajralib turadi. Masalan, o'quvchilar bilan sub'ekt- sub'ekt munosabatga kirishiladigan o'qituvchilik kasbida xayrixohlik, bolalarga yaxshilik qilish munosabati muhim ahamiyat kasb etadi, o'qituvchilik kasbi muallimdan bolalarni jon dildan seva olish fazilatiga ega bo'lishni talab etadi.

O'qituvchilik kasbi doirasida ta'lim-tarbiya jarayonida sub'ekt-sub'ekt munosabatlariga asoslaniladi. Bunday kasb egalari o'qituvchi odobining qonun-qoidalari, me'yorlariga rioya qilishlari zarur.

O'qituvchining kasb axloqi muammosi bo'yicha qator tadqiqotlar bajarilgan.

Kasb axloqi yo'nalishida bajarilgan ilmiy tadqiqotlardagi o'qituvchi odobining tarkibiy tuzilishi, vazifalari, qonuniyatlarini haqida quyida fikr yuritamiz.

Faoliyatning ma'lum bir sohasi bilan shug'ullanuvchi kishilarga taalluqli axloqiy me'yorlar, talablar ham bor. Bunday axloq kasb axloqi deyiladi. Har bir jamiyatda hukmron bo'lgan axloq bilan kasb axloqi o'rtasida ma'lum bir munosabat mavjud. Bu umumiylik bilan xususiylik o'rtasidagi munosabatdir. Kasb

axloqi umuminsoniy axloq nazariyasining qoidalari, tamoyillari va tushunchalarini, afzalliklari va kamchiliklarini o`zida mujassamlashtiradi, oydinlashtiradi va rivojlantiradi. Bundan tashqari kasb axloqi faqat shu soha kishilari uchun xos bo`lgan ayrim odob, axloq me'yorlari va qoidalarini ham o`z ichiga oladi.

Ayrim kasblar - o`qituvchi, shifokor, tijoratchi, huquqshunos, san'atkor, rahbar xodimlar uchun inson - mehnat ob'ekti hisoblanadi. Bu kasblarda mehnat ob'ektining - shaxsning taqdiri ko`p jihatdan shu kasb egasining axloqiy fazilatlariga bog`liq. Bunday kasb egalaridan mehnat faoliyati jarayonida odamlar bilan o`zaro muomala-munosabatlarini tartibga soluvchi axloqiy me'yorlarga qat'iy amal qilish talab etiladi. Bu esa shu kasb egalarining axloqiy mas'uliyatini oshiradi. Jamiyatning, davlatning bunday kishilarga ishonchi ham yuqori bo`ladi. Shuning uchun ham o`qituvchi, vrach, tijoratchi, rahbar xodimning axloqiy fazilatlar shu kasbda ishlashga yaroqli ekanligini ko`rsatuvchi muhim belgilardan hisoblanadi. Muallimlik ana shunday kasblardan bo`lgani uchun o`qituvchi odobi kasb axloqining boshqa turlaridan farq qiladi, bu - pedagogik faoliyatning axloqiy xarakteri va o`ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqadi.

Kasb axloqiga doir bir necha asarlarning muallifi Ya.G.Yakubson kasb axloqini shunday ta'riflaydi: "Kasb axloqi ma'lum bir jamiyatda ayrim kasb uchun xarakterli bo`lgan axloqiy me'yorlar, tushunchalar, baho va ideallarning majmuidan iborat. Kasb axloqi nazariyotchilari o`z asarlarida kasb axloqining umuminsoniy axloq bilan uzviy bog`liq ekanligini ta'kidlab ko`rsatadilar. Kasb axloqi tushunchasi kasbiy guruhlar axloqiy talablar darajasining har xilligini va nihoyat, muayyan kasbiy guruh kishilarining ijtimoiy birlik sifatidagi manfaatlarini u yoki bu darajada ifodalaydigan axloqiy yo`l-yo`riqlarini aks ettiradi. Turli kasb egalari axloqiy ongining rivojlanish darajasidagi har xillik bozor iqtisodiyotiga asoslangan jamiyat sharoitida ham saqlanadi. Hozirgi davrda ham turli kasb kishilariga bo`lgan axloqiy talablar darajasida tafovutlar, farqlar, mavjud.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi davlatimiz fuqarolariga ilm olish huquqini va buning uchun zarur sharoitlar yaratishni kafolatlaydi. Davlatimiz bu siyosatni izchil amalga oshirmoqda. Maktablardagi ta'lim-tarbiya ishlarining barchasi yoshlarni barkamol insonlar qilib tarbiyalashga yo'naltirilgan. Ta'lim-tarbiyaning insonparvarligi, demokratikligi, ta'lim oluvchilarni hurmat qilish O'zbekistonda ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyillaridan hisoblanadi. "Ta'lim to'g'risida"gi qonunda o'quvchilarning qadr-qimmatini hurmat qilish, ularda mehnatsevarlik, yaxshilik va muruvvat tuyg'usi, Vatan, yoshi ulug'larga, davlat va ona tili sifatida o'zbek tili, oila, milliy, tarixiy - madaniy qadriyatlarga nisbatan hurmat bilan munosabatda bo'lish tuyg'usini tarbiyalash mas'uliyatli vazifa ekanligi ko'rsatilgan.

Bu vazifalarni asosan maktablar va pedagogika o'quv yurtlarining professor-o'qituvchilari bajaradilar. Shuning uchun ham O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonunida pedagog xodimlar o'zlarining kasb-kor sha'ni va qadr-qimmatlarini himoya qilishlari; odob-axloq qoidalariga rioya etishlari; bola, o'quvchi va talaba shaxsining qadr-qimmatini hurmat qilishlari, ularni mehnat, qonunlar, ota-onalar va xotin-qizlar, ma'naviy, tarixiy, madaniy, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, atrof-muhitga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish ruhida tarbiyalashlari; o'zlarining butun faoliyatlari va shaxsiy namunalari bilan umuminsoniy axloq qoidalari; haqiqat, adolat, vatanparvarlik, insonparvarlik, yaxshilik va boshqa xayrli xislatlarga nisbatan hurmatni qaror toptirishlari; o'sib-ulg'ayib kelayotgan avlodni bir-birini tushunish, xalqlar, elatlar, millatlar va diniy guruhlar o'rtasida tinchlik, ahil-inoqlik ruhida tarbiyalashlari lozimligi qayd etilgan.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti I.A.Karimovning asarlari, nutq va ma'ruzalarida o'zbek xalqining ko'p asrlik ma'naviy, milliy, madaniy qadriyatlari, uning odob axloqini belgilab beruvchi qur'oni Karim, Hadisi shariflar, Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Bahouddin Naqshband, Az-Zamaxshariy, Najmiddin Kubro, Ahmad Yassaviy, So'fi Olloyor, Sulaymon Boqirg'oniy kabi mutafakkirlarning bebaho merosi; Al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Al-Beruniy,

Abu Ali Ibn Sino, Mahmud qoshg'ariy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Mirzo Ulug'bek, Amir Temur, Alisher Navoiy, Bobur, Kamoliddin Behzod kabi allomalarning jahon fani va madaniyati xazinasiga qo'shgan ulug', bebaho hissalarini tadqiq etish va shu asosda yosh avlodga ta'lim- tarbiya berish zarurligi ta'kidlanadi.

Ma'naviyat tarbiyaning eng ta'sirchan quroli bo'lib, undan oqilona foydalanish lozim. Axloq - ma'naviyatning o'zagi, inson axloqi shunchaki salom-alik, yaxshi muomaladagina iborat emas. Axloq - bu, avvalo insof va adolat tuyg'usi, iymon, halollik demakdir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning ta'kidlashicha, ma'naviy-axloqiy tarbiyada islom ta'limotining ahamiyati katta. Islom dini - bu ota-bobolarimiz dini, u biz uchun ham iymon, ham axloq, ham diyonat, ham ma'rifatdir.

Ko'hna tariximizning qaysi davrini eslamaylik, din har doim odamlarni o'z-o'zini idora etish, yaxshi xislatlarni ko'paytirib, yomonlaridan xalos bo'lishga chorlagan. Har bir insonni oila, jamoa xalqqa rahnamo bo'lish, og'ir sinovlarga bardosh berish, yorug' kunlarga intilib yashashga da'vat qilgan, ishontirgan. Bunday da'vat o'z navbatida odamlarga kuch-quvvat bag'ishlagan, irodasini mustahkam qilgan, bir-biriga mehr-oqibatini oshirgan. "Demak, din xalq ma'naviyatining, ma'rifatining yuksalishiga katta hissa qo'shib kelgan ekan, bugungi davlatchiligimiz haqida so'z yuritganda, rejalar tuzganda dinni eng avvalo, ham milliy, ham umuminsoniy qadriyat sifatida e'tiborda tutishimiz lozim. Hamma gap ana shu umuminsoniy va milliy qadriyatlarni uyg'unlashtirib hayotga tadbiq etishda.


O'zbekiston Respublikasi taraqqiyotining hozirgi bosqichida yigit-qizlarimiz ilm-ma'rifatli, diyonatli, yuksak axloqli bo'lishlari bilan birga, zamonaviy texnika va texnologiyalarni puxta o'zlashtirib olishlari lozim. Yoshlarimiz islomiy qadriyatlar bilan bir qatorda koinot siru asrorlarigacha bo'lgan dunyoviy bilimlarni ham mukammal o'zlashtirishlari zarur. Bu, maktablarda yoshlarga berilayotgan bilimlarning mazmunini muntazam yangilab borish, ta'lim-tarbiyaning yo'nalishini o'quvchilarni umuminsoniy va milliy axloqiy ruhda tarbiyalashga qaratishni talab

etadi. Muallim butun o`qitish jarayonida, avvalo, o`zi dars berayotgan fanning mazmuniga umuminsoniy va milliy axloqiy ta'lim-tarbiya vazifalarini singdirish yo`li bilan o`quvchilarga muntazam tarbiyaviy ta'sir o`tkazadi.

O`zbekiston fuqarosining ma'naviy qiyofasini belgilovchi fazilatlar - axloqlilik va odob, vatanparvarlik, insonparvarlik, milliy g`urur, mehnatsevarlik, baynalmilalchilik kabilar maktab va o`qituvchining faol ishtirokida, ta'lim-tarbiyaviy ta'siri ostida shakllanadi.

O`qituvchilik kasbi o`z mohiyatiga ko`ra, axloqiy xarakterga ega. Shuning uchun ham, avvalo, muallimning o`zi umuminsoniy va milliy qadriyatlarni puxta o`zlashtirib olishi va axloq bobida shaxsan ibrat bo`lishi zarur. Agar o`qituvchining umuminsoniy va milliy axloqiy qadriyatlar sohasidagi bilimlari sayoz, tasavvurlari chala, uning fikri, so`zi, amaliy ishlari o`rtasida uzilish bo`lsa, hozirgi davrda ta'lim-tarbiya sohasida kun tartibiga qo`yilayotgan vazifalarni samarali bajara olmaydi. Demak, bo`lajak pedagoglarga o`qituvchi odobiga doir bilim va malakalar berish zaruriyati pedagogik jarayonning ehtiyojlaridan ob'ektiv ravishda kelib chiqadi.

Yuqoridagi tahlillar bizga bo`lajak o`qituvchi shaxsidagi kasb odobi fazilatlarini shakllantirish uchun zarur bo`lgan "Odob fazilatlarini shakllanishining modeli" ni belgilash imkonini berdi. Bu model quyidagi jadvalda berilgan:



Ta'lim-tarbiya jarayonini boshqarishning asosiy muammolaridan biri uning ob'ekti va sub'ektlari haqida to'g'ri haqqoniy axborot to'plashdir.

Ta'lim-tarbiyaning samaradorligini ta'minlash maqsadida ta'lim-tarbiyaviy tadbirlarni o'tkazish uchun mo'ljallangan guruhlardagi o'quvchilarni mazkur jarayonning sub'ekti sifatida kasb odobi fazilatlari shakllanganligining mavjud holatini o'rganib, aniqlash zarur. Bu, ta'lim-tarbiya jarayonini to'g'ri tashkil etishning muhim sharti hisoblanadi. Buning sababi - o'rganish ob'ekti bo'lgan insonning murakkab takrorlanmasligidadir. Shaxs sifatida shakllanish jarayonini boshdan kechirayotgan inson turli jihatlardan tavsiflanadi: anatomo-fiziologik jihatdan uning rivojlanishi o'z dinamikasi va qonuniyatlariga ega, ta'lim-tarbiya jarayonida buni e'tibordan chetda qoldirib bo'lmaydi; psixofizik individ sifatida har bir bola o'ziga xos xarakter sifatlari, xususiyatlariga, o'z temperamentiga; hissiy, aqliy, xulqiy tavsiflariga ega; ruhiy shakllanishning ma'lum bir

pog'onasidagi shaxs sifatida o'z yosh davriga mos keladigan ruhiy olami, qiziqishlari, tasavvurlariga ega bo'ladi.

Har bir o'qituvchi o'quvchi haqidagi xilma-xil, ko'p axborotlardan qisman xabardor bo'lishi mumkin, barcha axborotlarni bilib olishning iloji yo'q. O'qituvchi, avvalo, ta'lim-tarbiya jarayonini samarali boshqarish uchun, o'qitish lozim bo'lgan o'quvchilarning qaysi xislatlarini bilib, e'tiborga olish lozimligini aniqlaydi.

Pedagogika fanida bu masalaga ikki xil yondashuv mavjud: 1) insonni murakkab mavjudotligini anglash jarayoni sifatida; 2) ma'lum bir faoliyatni yaxshiroq bajarishga tayyorlash jihatidan. Bu jihatlarning har birini alohida-alohida ko'rib chiqamiz.

Insonni anglash jarayonining o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, o'qituvchi amalda o'quvchining faqat hatti-harakati, xulqinagina kuzatishi mumkin. Vaholanki, talabaning qator tadbirlarda ishtirok etishi, hech so'zsiz, unda bu sohaga qiziqishi kuchli, unda ma'lum yo'nalish shakllangan deb baholanadi. Lekin bunday xulosa haqiqatga to'g'ri kelmasligi ham mumkin. Kishining faolligi turli motivlarga binoan sodir bo'ladi. Masalan, talaba jamoa topshirgan ishni bajarishni faol boshqarayapti. Bunda jamoaviylik motivi amal qilishi, talabaning harakatlari jamoa foydasini ko'zlagan, umumiy ishni yaxshiroq bajarishdan manfaatdorligida namoyon bo'ladi; yoki xudbinlik xususiyati ustunlik qiladi; u o'zini ko'rsatmoqchi, ustunligini, rahbarlik qilishga haqqi borligi yoki manfaatdorligini namoyon qilishi mumkin.

Bu qiyinchilikni ya'ni talaba xulqining tashqi ko'rinishi bilan uning ichki ma'naviy-ruhiy olamidagi farqlarni aniqlash, ajratish uchun savol-javob, anketa o'tkazish, intervyu olish kabi usullardan foydalaniladi. Ularning ichki olamini tavsiflovchi hissiy kechinmalari, hatti-harakatlarining motivlarini o'zlaridan so'rab aniqlash mumkin. Bunday usul bilan olingan axborotlar ba'zi yashirin jihatlarni oydinlashtiradi. Lekin bu usulda ham ayrim noaniqliklar saqlanadi. Talabalarga qator savollar bilan murojaat etayotganimizda, biz shuni ham nazarda tutdikki, javoblar u qadar ob'ektiv emas. Yopiq tarzda o'tkazilgan so'rovlar ham kutilgan

real holatni to'la aks ettira olmaydi. Bulardan tashqari ixtiyorsiz xato qilish holati ham kuzatiladi, ya'ni respondent o'ziga ortiqcha baho bergan ma'lumotlar ham uchraydi. Respondent o'zicha to'g'ri javob bergan bo'lsa ham xulosa real amaliyotga mos kelmasligi mumkin.

Xullas, bo'lajak o'qituvchilarning ichki dunyosi, uning ongi, o'z-o'zini anglash jarayonlarini aniqlashning bu usullari - anketa, intervyu, so'rov kabilar muhim axborotlar to'plashga yordam bersa ham bu axborotlar haqqoniyligini isbotlaydigan maxsus usullardan, mantiqiy tahlil usulidan ham foydalanish talab etildi.

Talabalarda pedagog odobi fazilatlarining shakllanganlik darajalarini o'rganishda tajriba-sinov usulidan foydalanish, kuzatish va so'rovnomalar yordamida to'plangan materiallar haqqoniyligini aniqlashga yordam berdi. Tajriba-sinov yo'li bilan tahlil qilinganda talabalarning faqat o'zlashtirgan bilimlari darajasini aniqlashgina emas, balki ularning his-tuyg'ulari, kechinmalariga ham e'tibor qaratildi.

Shunday qilib, o'qituvchi odobi fazilatlarini shakllantirish jarayoni bir qadar murakkab bo'lib bu sohada turli usullarni qo'llagan taqdirdagina haqqoniy axborotlar to'plash mumkin bo'ladi. Ta'lim-tarbiya jarayoni sub'ekti bo'lgan talabalar tarkibini o'rganishda yaxlit yondashuv samarali hisoblanadi. Har xil vositalar, usullarni qo'llash bo'lajak o'qituvchi haqida atroflicha axborot to'plash; to'g'ri, ob'ektiv tasavvur hosil qilishga imkon yaratadi.

Talabalar tarkibini o'rganish jarayoni tadqiqot ob'ektining murakkabligi, uni anglash jarayonlarining murakkabligi bilangina emas, o'qituvchi odobini shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim-tarbiya jarayonining murakkabligi bilan ham tavsiflanadi.

Bo'lajak o'qituvchilarni atrof-borliqqa bo'lgan munosabati jihatidan o'rganish, shuningdek pedagog odobi fazilatlari shakllanishining modeli bilan taqqoslash uchun ularda o'qituvchi odobi fazilatlari shakllanganligining mavjud holatini aniqlash zarur. Shundagina o'qituvchi odobi fazilatlari shakllanganligining mavjud darajasini talab etiladigan darajasi bilan taqqoslash; ta'lim-tarbiyaning

qaysi jihatlariga e'tibor qaratish lozimligi ma'lum bo'ladi. Bo'lajak o'qituvchi shunga asoslanib ta'lim-tarbiyaviy tadbirlar tizimini ishlab chiqishi mumkin. Agar ilmiy tadqiqot ishlari pedagog odobi fazilatlari shakllanishining modeliga yo'naltirilmasa, uni samarali shakllantirish mumkin emas. Shuni hisobga olib, biz tadqiqotimiz dasturini belgilashda ishlab chiqilgan pedagog odobi fazilatlari shakllanishining modeliga tayandik. Uni talabalarni ta'lim-tarbiya ob'ekti sifatida o'rganishga asos qilib oldik.

Shunday qilib, biz yuqorida keltirilgan pedagog odobi fazilatlari shakllanishining modelini ishlab chiqdik va boshlang'ich ta'lim ixtisosligi talabalari bilan ilmiy-tadqiqotlarni o'tkazdik. Bu tadqiqotlarning asosiy natijalarini quyida keltiramiz.

Tadqiqot dasturini ishlab chiqishda uning mazmunini belgilash bilan birga har bir aniq holat uchun axborot manbai va uni olish vositasini aniqlashni ham zarur deb hisobladik.

Odob fazilatlari shakllanishining modelini ishlab chiqayotganda biz ikki xil aloqaga e'tiborni qaratdik: birinchisi-jamiyatning o'qituvchi shaxsiga munosabati va ikkinchisi – o'qituvchi shaxsining jamiyatga munosabati masalasiga e'tiborni qaratdik, chunki kasb odobi fazilatlari ularda namoyon bo'ladi.

Bozor iqtisodiyoti qonunlariga, adolat tamoyillariga asoslangan demokratik jamiyatda pedagog odobining mohiyatini ochish va uning boshqa sifatlardan farqini oydinlashtirish uchun talabalarning adolatli ijtimoiy tuzum haqidagi bilim va tasavvurlarini o'rganish maqsadga muvofiq, ya'ni tenglik, erkinlik, baxt tushunchalari ular tasavvurida qanday mazmunga ega. Tadqiq etiladigan ikkinchi guruh bilimlar-talabalarning inson shaxsi, uning shakllanish bosqichlari, mexanizmlari haqidagi bilimlaridan iborat bo'ladi, buning uchun insonning mohiyati, uning tabiati, insonlararo munosabat, shaxsning rivojlanishi, barkamol shaxs tushunchalarining mazmunini tahlil etish lozim. Bu tushunchalarda umumfalsafiy va kasbiy bilim birliklari mavjud. Pedagoglik kasbini tanlagan talabalar uchun bu bilim, tasavvurlar o'ta muhim ahamiyat kasb etadi, chunki ular kelgusi faoliyatlarida o'quvchi shaxsini shakllantirish masalasi bilan

shug'ullanadilar, to'g'ri shakllangan bu bilim va tasavvurlar ularga amaliy faoliyatda yordam beradi.

Bizning fikrimizcha, kelajakdagi kasbiy faoliyatga tayyorlanish bosqichida talabaning pedagogika o'quv yurtida o'qish chog'ida olgan bilimlari dunyoqarashining zamini sifatida ilmiy asoslangan, mustahkam bo'lmog'i zarur. Talabada chuqur, to'g'ri kasbiy-axloqiy bilimlar hosil qilinmasa, maktab o'qituvchisi uchun zarur axloqiy e'tiqodni rivojlantirib bo'lmaydi. Talabalar bilimiga e'tiborni qaratish shuning uchun ham zarurki, pedagogika o'quv yurtida yaxshi o'qish bilimlar tizimini puxta o'zlashtirish-ularning ijtimoiy burchidir: talaba bilimlarni egallash faoliyati orqali jamiyat hayotida qatnasha boradi, bilim egallashdagi yutuqlari orqali jamiyat rivojiga o'z hissasini qo'sha boradi.

Talabalar bilimlari haqida axborotlarni olish manbai-ularning o'zlari va professor-o'qituvchilar hisoblanadi. Biz tadqiqotni amalga oshirish jarayonida birinchi manba - talabalarning o'zlariga tayandik. Talabalardan olingan yozma javoblar tahlili ularning bilimlaridagi yaxshi jihatlar va kamchiliklarni aniqlashga, kursdan-kursga o'tgan sayin bilimlarida qanday o'zgarishlar bo'lishini aniqlashga imkon berdi. Talabalarning kasbiy-axloqqa doir tushunchalari, pedagogik odobga oid bilimlarini anketa so'rovlari yordamida aniqladik.

Shaxsning jamiyatga munosabatini tahlil etganda biz odob fazilatlarini shakllanishining ideal modeliga binoan uch xil munosabatlar - atrof-muhitga munosabat; boshqa kishilarga va o'z-o'ziga munosabatlarga e'tiborni qaratdik. Bu xil munosabatlar rivojlanishiga doir to'g'ri axborotlarni qanday to'plash mumkinligini ko'rib chiqamiz.

Mustaqil O'zbekiston Vataniga munosabatni turli vositalar majmui orqaligina aniqlash mumkin. Taklif etilgan ikkinchi anketadagi savollar talabalarning mustaqil O'zbekistonning taraqqiyoti, uning o'tmishi, madaniy-axloqiy qadriyatlari, an'analari, o'zi tug'ilib o'sgan joyga doir talabalarning tasavvurlari, tushunchalari, munosabatlari, his-tuyg'ularini aniqlashga qaratildi. Olingan javoblar talabalar xulqini, hatti-harakatlarini darsda, shanbaliklarda, tadbirlarda kuzatish materiallari bilan to'ldirildi.

Mehnatga munosabatni tahlil va tavsif etganda, avvalo talabalarning o`qishga munosabatiga asosiy e`tiborni qaratish lozim, chunki bu davrda o`qish, bilim egallash talaba ijtimoiy-mehnat faolligining asosiy shakli hisoblanadi. Buning uchun bilim o`zlashtirishi haqidagi ma'lumotlardan foydalanish maqsadga muvofiq: nafaqat talabaning semestr, o`quv kursi davomida, yakunida to`plagan umumiy ballaridagina emas, balki fan bloklari bo`yicha to`plagan ballariga ham, ayniqsa, psixologik-pedagogik, metodik fanlar, pedagogik amaliyot, ilmiy-pedagogik tadqiqotlardan to`plagan ballari, olgan baholari, o`zlashtirishiga ham e`tibor qaratildi.

Talabaning o`quv yurtida qanday o`qigani haqidagi axborotlar uning o`qishini bitirganidan keyingi dastlabki yillarda maktabda qanday ishlaganligiga, o`quv-tarbiya ishlariga ijodiy munosabatiga doir axborotlar bilan to`ldirildi. Shundagina kishining pedagogik ishga munosabati haqida mukammal, to`g`ri xulosaga kelish mumkin.

Shu bilan birga olingan axborotlarni talabaning va yosh o`qituvchilar xulqining asosiy motivlariga doir axborotlar bilan to`ldirish maqsadga muvofiq. Ma'lumki, motivlar o`zgaruvchan bo`ladi, ular o`qishga kirayotganda, o`qish davrida, pedagogik faoliyatning dastlabki yillarida o`zgarishi mumkin. Ayrim talabalarga o`qishga kirguncha tanlagan kasbi yoqsa ham, keyinchalik yoqmay qolishi mumkin. Yoki aksincha, ota-onasi, tanishlarining maslahati bilan shu kasbni, xohlamasa ham, tanlagan talaba o`qish davrida pedagogik kasbiga qiziqib qoladi, o`qituvchilikni tanlab to`g`ri ish qilganiga ishonch hosil qiladi. Bunday axborotni ikki xil yo`l bilan olish mumkin: birinchisi talabalardan anketa so`rovlariga javoblar olish; ikkinchisi yosh o`qituvchi dastlabki yillarda qanday ishlayotgani to`g`risida; maktabda ishlamayapti, ishlayapti lekin sovuqqonlik bilan; jon kuydirib o`qituvchilik qilayapti kabi ma'lumotlar to`plash yo`li bilan. Bunday axborotni maktab ma'muriyatidan, birga ishlayotganlardan so`rab bilish mumkin.

Tabiatga munosabat - axloqiy munosabatlarning muhim sohasidir. Hozirgi davrda u ikki xil shaklda ko`zga tashlanishi mumkin: birinchisi - terrorizmga va

yadroviy qurollarga munosabatda; ikkinchisi - tabiatga, uning boyliklari, tabiiy resurslariga munosabat; ekologiyaga munosabat - bu juda muhimdir. Bunday axborotlarni ham ikki xil manbadan: talabani o'zidan va atrofdagi kishilardan olish mumkin. Bu manbalar shuning uchun ham muhimki, talabani o'zi ham, atrofdagilar ham masalani axloqiy jihatiga deyarli e'tibor bermaydilar. Javoblarda ham bu holat aks etadi: javoblar umumiy, beryoqlama bo'ladi. Shuning uchun ham talabani bu sohadagi biror yaxshi ishi, hatti-harakatini ma'qullash, rag'batlantirish lozim.

Boshqa kishilarga munosabat - axloqiy munosabatlarning juda muhim jihatidir. Bu xil munosabatlarni o'rganish o'ta murakkab ish. Chunki u inson qalbi ichki sirlariga taalluqli. Uni tadqiq etganda o'ta ehtiyotkorlik talab etiladi.

Talabani yaqin kishilariga munosabatini tadqiq etganda biz anketa usulini qo'llamadik, balki samimiy suhbat qilishni lozim topdik. Samimiy suhbat chog'ida har xil savollar qatorida talabani oilasidagi o'zaro munosabatlar, uydagilar unga qanchalik e'tibor berishlari, uning oila a'zolariga munosabati kabilar bilan ham qiziqdik. Bunday suhbatlar chog'ida oiladagi qarama-qarshiliklar, munosabatlardagi ayrim anglashilmovchiliklar tilga olinadi. To'plangan axborotlar guruh rahbari bilan muhokama etildi. Maslahatlar natijasiga ko'ra talabani yaqin kishilariga axloqiy munosabatiga baho berildi.

Talabalarning do'stlariga munosabati anketa savollari orqali aniqlandi, har bir talabani kursdoshlariga munosabati o'zining bahosi, fikri va uchta boshqa do'stlarining bahosi bilan to'ldirildi.

O'qituvchilik kasbi sub'ekt-sub'ekt munosabatlariga asoslanganligi uchun kasbiy aloqalar va axloqiy munosabatlarni biz pedagogik axloq masalalari doirasida tadqiq etdik.

O'qituvchi odobining dunyoqarash jihatini biz talabani o'quv yurtida shakllangan bilimlari, tasavvurlari asosida aniqladik. Tegishli axborotlarni olish uchun biz so'rov varaqalaridan foydalandik, unda o'qituvchi odobiga doir tushunchalarning mazmunini ochib berishlari talab etildi. O'qituvchilik vijdoni,

mas'uliyati, talabchanligi, bilimdonligi kabi tushunchalar yordamida talabaning o'qituvchi odobiga doir bilimlarini aniqlashga e'tibor qilindi va tegishli ball bilan (besh ballik tizimda) baholandi.

Pedagogik muomala masalasini tadqiq etish ancha murakkab ish ekanligi tadqiqot jarayonida ma'lum bo'ldi. Pedagogik muomalaning namoyon bo'lishini talabalar pedagogik amaliyotni o'tayotganlarida kuzatish mumkin. Shu bilan birga biz talabalarga pedagogik vaziyatlarga doir topshiriqlarni echishni taklif etdik. Talabaning xushmuomalaligi, pedagogik muomalaga rioya qilishi yoki qilmasligini kursdoshlari va guruh rahbarining fikr-mulohazalari bilan to'ldirdik. So'rov materiallari asosida talabaning ushbu sifati baholandi.

O'z-o'ziga munosabat masalasini tadqiq etganda biz talabaning onglilik darajasini aniqlash maqsadida quyidagi savollardan foydalandik: birinchidan, talaba o'zidagi qaysi sifatlarni ijobiy, qaysilarini salbiy baholaydi; ikkinchidan, bu xususiyatlarga qanday munosabatda: ma'qul deb biladi; qarshi kurashadi, befarq. uchinchidan, o'zida nimalarni o'zgartirmoqchi? Buning uchun nima qilyapti? Bu savollarga tegishli yozma tarzda javoblar olindi.

Bo'lajak o'qituvchining o'z o'ziga munosabati masalasining yana bir jihati – Men, ya'ni o'zlikni anglash xususiyatidir, chunonchi, o'z-o'zidan qanoatlanishi, o'z shaxsini hurmat qilishi, atrofdagilar bilan bo'lgan o'zaro munosabatlarini aniq baholay olishi, o'zligini anglashi kabilar.

Talabaning o'z kelajagiga ishonch bilan qarashi masalasiga tadqiqot davomida e'tibor berildi. O'z kelajagiga munosabati shaxsning o'z-o'zini axloqiy rivojlantirishida muhim omil hisoblanadi. Shu maqsadda talabalarga o'z-o'zini ayrim sifatlar bo'yicha tavsiflash taklif etildi: avvalo men “kimman?”, so'ngra: “men kim bo'lishni istayman?”, “nimalarga kuchim etadi?”, “nimalar qilishim kerak?”. Talabaning bu savollarga bergan javoblari kursdoshlaridan 5 tasining, ekspertlardan 3 kishining ma'lumotlari bilan to'ldirildi.

Xullas, talabalarni kasbiy-axloqiy tarbiyalash jarayonini samarali boshqarish muammosini echish ta'lim-tarbiyaning turli usul, shakl, vositalaridan izchil, tizimli foydalanishni talab etadi.

2.2. Tajriba-sinov ishlarini tashkil etishdagi pedagogik tamoyillar

Tanlangan mavzuga doir tadqiqotlarning natijalarini umumlashtirish va tajriba-sinov ishlarini tashkil etishda biz quyidagi tamoyillarga amal qildik:

Birinchi tamoyil, bu talabalarning kasbiy-axloqiy tarbiyasiga yaxlit yondashish tamoyili. Bu tamoyil asosiy o`ringa qo`yilishining sababi-kasbiy-axloqiy ta'lim-tarbiyaning murakkabligida, faol axloqiy nuqtai-nazarni shakllantirish zarurati bilan bog`liqligida. Kasbiy-axloqiy tarbiyalanganlik shaxsning turmush tarzida namoyon bo`ladi...

Ta'lim-tarbiyaga tizimli yondashish masalasining dolzarbligi tobora ortib bormoqda. Biz tadqiq etayotgan muammoga tizimli yondashish quyidagilarni nazarda tutadi. Avvalo ta'lim-tarbiya usullari va vositalarining xilma-xilligini; bu o`z navbatida o`qituvchi hamda o`quvchilar duch keladigan o`zaro aloqa usullarining va munosabatlarning xilma-xilligi bilan uzviy bog`liqdir. Bular: Vatan; tabiat, atrof-muhit; mehnat; odamlar orasidagi; o`z-o`ziga, ongini o`stirish, xulqini to`g`ri baholay olishga munosabat kabilar. Bunday aloqa va munosabatlarning har biri o`ziga xos xususiyatlarga ega, shuning uchun ham xilma-xil ta'lim-tarbiyaviy usul, vositalarni taqozo etadi.

Talabaga axloqiy ta'sir o`tkazish uchun qo`llanadigan vositalar, tadbirlar bir-birini takrorlamasligi, to`ldirishi, boyitishi juda muhim. Shunday qilib, tizimli yondoshuv aniq bir maqsadni ko`zlab amalga oshiriladi, maqsadga erishishning qulay vosita va usullarini tanlay bilishni taqozo etadi.

Tadqiqotimizning ikkinchi yo`nalishi - bu mehnat faoliyati o`qituvchi odobini shakllantirishning bosh vositasidir.

Faoliyat ta'lim-tarbiyaviy qimmatga ega bo`lishi uchun, avvalo, u qanday maqsadga qaratilgani va nimalardan iborat bo`lishini aniq belgilab olish zarur: ish-faoliyatning mazmuni, tuzilishi, xarakteri, ijtimoiy va shaxsiy qimmatini aniqlash lozim.

Pedagogik tadqiqotlar shundan dalolat beradiki, mehnat shaxsiy va ijtimoiy qimmatga ega bo`lsagina ta'lim-tarbiyaviy vazifani bajara oladi. Talabalarning faolligini mamlakatimiz taraqqiyoti , o`quv yurti jamoasi yashayotgan shahri

(qishlog'i) va o'zi uchun zarur bo'lgan mehnat turiga jalb etish kutilgan natijani beradi, talaba uchun shaxsiy qimmatga ega bo'ladi. Xilma-xil faoliyat turlaridan talabalarning yoshi, egallayotgan ixtisosligi, manfaatlariga mos keladigan shaklini tanlash lozim. Pedagogika o'quv yurti talabalari uchun quyidagi faoliyat turlarini tanlash maqsadga muvofiq.

1) Pedagoglik faoliyatining barcha shakl, turlari – faoliyatning bu turlariga bo'lajak o'qituvchilar katta qiziqish va manfaatdorlik bilan qaraydilar. Bunday faoliyatni bajarib o'zlarining pedagogik mahoratlari ko'nikma, malakalarini oshiradilar, hamda jamiyatga foyda keltiradilar;

2) Davlat, jamiyat uchun dolzarb, zarur mavsumiy ishlar; paxta hosilini yig'ishtirib olish, suv inshootlari, obodonchilik, ko'kalamzorlashtirishda qatnashish kabilar. Faoliyatning bu turlarida ishtirok etish bilan bo'lajak o'qituvchi mamlakatning ijtimoiy hayotida qatnashadi, ijtimoiy munosabatlarni chuqurroq anglay boradi, odamlar bilan munosabatda bo'ladi, muloqot odobini egallaydi.

Talabalar mehnat faoliyatining shakli va xarakteri masalasi, ularning faolligi masalasi ham juda muhimdir. Mehnat, faoliyat ijodiy xarakterda bo'lsa, uning ta'lim-tarbiyaviy qimmati ortadi. Shu tarzda tashkil etilgan faoliyat bo'lajak o'qituvchilar shaxsini shakllantirishga xizmat qiladi: ularda mas'uliyat, maqsadga intiluvchanlik, tashabbuskorlik kabi sifatlarni o'stiradi. Erkin harakat qilish, ijodkorlik elementlaridan xoli mehnatni, zo'rma-zo'raki ishlarni talabalar yoqtirmaydilar, sovuqqonlik bilan bajaradilar, buning tarbiyaviy ahamiyati bo'lmaydi. Yoshlarda befarqlik, hatto mehnatga salbiy munosabat hosil bo'lishiga olib keladi.

Mehnatni tarbiyaviy nuqtai-nazardan tashkil qilishga qaratilgan yuqoridagi tahlil talabalar mehnat faoliyatining shaklini, tuzilishini to'g'ri tanlashga imkon beradi. Biz talabalar mehnati individual tarzdami yoki aksincha, jamoaviy shaklda tashkil etilishi kerakmi, degan masalani ko'zda tutayapmiz. Bu masalaning ahamiyati yuqori. Oliy o'quv yurtlarida tahsil olayotgan talabalarning yoshlik xususiyati (18-25 yoshlilar) jamoaviy bo'lib ishlashni xush ko'radi. Jamoa bo'lib

mehnat qilish yoshlarda o`rtoqlik va do`stlik, hamjihatlik, o`zaro yordam, hamdardlik, xushmuomalalik, safdoshiga yordam qo`lini cho`zish, jamoa faoliyatini tashkil etish va boshqarish malakalarini shakllantiradi. Talabalar mehnatini xuddi shunday tashkil etish lozim ekanda, degan fikr tug`iladi. Shu bilan birga mehnatni jamoaviy shaklda tashkil etishning o`ziga xos nuqsonlari ham mavjud: ishni birgalashib bajarish ba'zilarida yalqovlik, ishning natijasi uchun mas'uliyatsizlik, shaxsiy mas'uliyatni unutib qo`yishga ham olib kelishi mumkin.

Shuning uchun ham talabalar mehnat faoliyatini tashkil etishda faoliyat ko`rsatishning individual shakllarini ham qo`llash maqsadga muvofiq, chunki ishni yakka o`zi bajarishi kishida topshiriqni bajarish uchun shaxsiy mas'uliyat hissini oshiradi; ishni o`zi bajarishni rejalashtirib, mo`ljallab olishga, ishni bajarishning osonroq yo`llarini izlashga da'vat etadi; va nihoyat rejalashtirilgani bilan bajarilganini taqqoslab ko`rish, o`z ishiga o`zi xolisona baho berishi, ishni tashkil etish, bajarish borasida o`z nuqsonlarini bartaraf etishga, o`z ishini yaxshiroq tashkil etishga turtki bo`ladi.

Shunday qilib, mehnat vositasida talabalarni kasbiy-axloqiy shakllantirish tamoyili talabalar soni, ishning xarakteri va ishlash sharoitiga qarab aniqlanadi, mehnatning ijtimoiy qimmati, mazmuni, xarakterini hisobga olib tashkil etilishi kerak. Shunday tashkil etilgan ish, mehnat, faoliyatgina talabalarning kasbiy-axloqiy shakllanishiga ijobiy ta'sir etadi. Aks holda pedagogik adabiyotlarda ko`rsatilganidek va ta'lim-tarbiya amaliyotida sodir bo`layotganidek mehnatga befarqlik avj oladi, bu, bo`lajak o`qituvchilar shaxsining axloqiy shakllanishiga yordam bermaydi.

Tadqiqotimizning uchinchi tamoyili - bu ta'lim-tarbiyaviy ishlar samaradorligining haqiqiy mezoni shundan iboratki, talabalarda pedagog odobi fazilatlarini shakllanganlik darajasini sinov natijasida aniqlangandagina haqiqiy manzara aniqlanishi mumkin. Ta'lim-tarbiya ishlarida buning ma'nosi shundaki, kasbiy-axloqiy ta'lim-tarbiyaning samaradorligini o`tkazilgan tadbirlarning soni, ularning turli-tumanligi, tadbirda ishtirok etgan respondentlar miqdori bilan ham o`lchab bo`lmaydi. Ko`pgina pedagogik adabiyotlarda to`g`ri ta'kidlanganidek,

tadbirlarni tashkil etish va o'tkazish sohasida yuqori natijalarni qo'lga kiritish, qatnashuvchilar sonining ko'pligi bilan maqtanib bo'lmaydi.

Mazkur tamoyilni qo'llash shuni ifodalaydiki, ta'lim-tarbiyaviy ishlar samaradorligini to'g'ri baholash mezonlari tarbiyaviy jarayondan tashqarida mavjuddir. Biz tadqiq etayotgan muammoda samaradorlikning haqiqiy mezonlari sifatida o'qishni bitirgandan keyin o'z kasbi bo'yicha pedagoglik qilayotgan o'qituvchilar miqdori, ijodiy ishlayotgan o'qituvchilar soni, yosh o'qituvchilarning ta'lim-tarbiya berish sohasidagi yutuqlari, o'quvchilari egallagan bilim, ko'nikma, malakalarning muayyan darajasi kabilarda namoyon bo'ladi. Ta'lim-tarbiyaviy ishlar samaradorligini baholashga bunday yondashish oliy o'quv yurti, pedagogika kolleji, akademik litsey va maktablar o'rtasida muntazam aloqa o'rnatilishini talab etadi. Bunday aloqalar zarurligini yosh o'qituvchilar amaliy ishda duch kelgan qiyinchiliklari haqida oliy o'quv yurti professor-o'qituvchilariga tez-tez murojaat qilib turishlarida ko'rish mumkin. Bunday aloqalar mavjudligi: 1) yosh o'qituvchilar oliy o'quv yurtini haqiqiy ilm maskani sifatida tan olganliklari, pedagoglik kasb mahoratini egallashlariga yordam bera olishlariga ishonchni; oliy o'quv yurtidan haqiqiy yordam, ko'mak olishga bo'lgan ishonchni bildiradi; shu bilan birga bu oliy o'quv yurtida ular haqiqiy bilim va kasb mahoratini egallaganliklari; professor-o'qituvchilar bilan talabalar o'rtasida yaqin do'stona, beg'araz samimiy muloqot o'rnatilganligi, endigina ish boshlayotgan yosh o'qituvchi ustozlaridan kasb mahoratini astoydil o'rganganini ko'rsatadi. Mashhur pedagoglar bilan ularning shogirdlari orasida bunday bog'lanish va ma'naviy aloqalar hamisha mavjud bo'lgan, bunday aloqaga vaqt ham, masofa ham to'sqinlik qila olmagan. Oliy o'quv yurtlarida bunday ustoz-shogirdlik munosabatlarini qo'llab-quvvatlash juda muhim, chunki bu o'quv yurtida yaxshi ishlar amalga oshirilayotganidan dalolat beradi.

Ta'lim-tarbiyaviy dasturimizga asos qilib olingan to'rtinchi tamoyil - oshkoralik, muammolarni ochiq muhokama qilish. Bu o'qituvchi odobini shakllantirishda muhim ekanligi demokratik jamiyat sharoitida juda ham zarur. Talabalar bilan bajariladigan ta'lim-tarbiyaviy ishlarda ham unga amal qilish zarur.

Bizning tadqiqotimizda talabalarning axloqiy tarbiyasiga nisbatan bu yo`nalish quyidagilarni anglatadi: har bir talabaning o`qish natijalarini, jamoat ishlari sohasiga qo`shgan aniq hissasini guruh jamoasida muhokama qilish; har bir talabadan topshirilgan ish uchun shaxsan mas'uliyatni talab etish; talabalar o`z-o`zini boshqarish shakllarini rivojlantirish.

Afsuski, ko`p hollarda muhim ta'lim-tarbiyaviy tadbirni tayyorlash va o`tkazishga ko`plab talabalar jalb etiladi. Oliy o`quv yurtining ayrim o`qituvchilari tadbirda ishtirok etishning o`zi yoshlarni tarbiyalaydi, deb hisoblaydilar. Aslida bu u qadar to`g`ri emas. Bu masalaning ikki jihatiga e'tiborni qarataylik: birinchisi, tadbirni tayyorlash va o`tkazishda ishtirok etgan har bir talabaning qo`shgan aniq, shaxsiy hissasini baholash; ikkinchidan, butun tadbirga nisbatan talabalar bajargan ishlarni baholash. Odatda, tarbiyaviy tadbir uchun mas'uliyat o`qituvchilar yoki jamoat tashkiloti zimmasida bo`ladi, talaba tadbirdagi barcha ishlar uchun jon kuydirmaydi, balki faqat o`ziga topshirilgan ishnigina bajarishga harakat qiladi. Talaba bajargan ish umumiy tadbirga qanchalik hissa bo`lib qo`shiladi? Tadbirning umumiy ko`rinishida qanday ahamiyat kasb etadi? Ba'zi holatlar talaba uchun ahamiyatsizdek bo`lib tuyuladi. Tarbiyaviy ish uchun bunday qarash yaxshi emas. Bu haqiqiy ijtimoiy faollikni so`ndiradi; talabaning tadbirda bu tariqa ishtirok etishi tarbiyaviy qimmatga ega bo`lmaydi, talabada axloqiy e'tiqodni hosil qilishga da'vat etmaydi.

Oliy o`quv yurti tajribasida ta'lim-tarbiyaviy ishlar amaliyotida yana bir narsaga e'tiborni qaratmoq lozim. Tarbiyaviy tadbir yaxshi o`tdi, yoki aksincha bo`ldi deb tadbir baholanadi, lekin uni tayyorlash va o`tkazishda faol ishtirok etgan talabalar shaxsan taqdirlanmaydi. Bunday sharoitda talabaning shaxsan manfaatdorligi so`nadi, hafsalasi pir bo`ladi; jamiyat, jamoatchilik tomonidan qadrlanmagan, taqdirlanmagan ishni bajarishning qizig'i qolmaydi. Oliy o`quv yurtlarida yilning bir-ikki muhim voqealariga bag'ishlab berilgan faxriy yorliq qog'ozlari, rahmatnomalar bilan rag'batlantirishlar talabalarni qanoatlantira olmaydi. Hammaga ma'lumki, talaba yoshlar uchun ularning xizmatlarini faqat kattalar ma'qullashigina emas, tengqurlari, talabalar jamoasi ham tan olishi, yuqori

baholashi ham juda muhimdir. Talaba uchun aynan tengqurlari, guruh jamoasining bahosi, tan olishi talabani ruhlantiradi, uning shaxsiy axloqiy sifatlarining shakllanishiga kuchli ijobiy ta'sir etadi. Masalaning ana shu jihatiga kam e'tibor beriladi, kuchli tarbiyaviy ta'sirga ega bo'lgan imkoniyat foydalanilmay qolib ketaveradi. Bizning oliy o'quv yurtidagi ko'p yillik tajribamiz shuni ko'rsatdiki, o'tkazilgan tadbirni talabalar jamoasi bilan ochiq muhokama qilish, faol qatnashganlarni maqtash, rag'batlantirish yoki aksincha nuqsonga yo'l qo'yganlarni ham tegishlicha baholash talabalarda topshirilgan ishni bajarish uchun mas'uliyatni oshiradi; talabalarda intilish, ijodkorlik uchqunlari, shaxsan manfaatdorlikni oshiradi. Natijada keyin o'tkaziladigan tadbirlarning sifati ham, ta'lim-tarbiyaviy ishning samaradorligi ham ortadi. Bu, tadbirni tayyorlab o'tkazganlar uchun ham, barcha ishtirokchilar uchun ham tarbiyaviy qimmatli bo'ladi. Talabalarining qishloq xo'jalik ishlari, paxta yig'im-terimida ishtiroklari natijasini ochiq muhokama qilish, tegishlicha baholash ham tarbiyaviy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi, mehnat faoliyatini takomillantirishga, talabalar faolligini oshirishga xizmat qiladi.

Oshkoralik va ochiq muhokama qilish o'zaro ishonch bilan boyitiladi. Talaba hayoti va faoliyatining hamma jihati ham ochiq muhokama qilinavermaydi, talaba duch kelgan hamma qiyinchilik, kechinmalarni ham jamoa yig'ilishida ko'rib chiqish to'g'ri emas. Talaba hayotining asosiy jihatinigina emas, balki tengqurlari bilan muomala munosabatidagi ayrim qiyinchiliklar, o'quv materialini o'zlashtirishidagi qiyinchilik kabilar ham ta'lim-tarbiya jarayonining tashkilotchisi (murabbiy, guruh rahbari) yoki boshqa biror ishonchli, obro'li kishi bilan maslahat tarzida muhokama qilinsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Albatta bunday odam talaba ixlos qo'ygan, dildan ishonadigan bo'lmog'i lozim. Aks holda talaba duch kelgan boshqa begona odamga o'z ko'nglini yorishi mumkin; begona kishi talabaga to'g'ri maslahat berib, to'g'ri yo'lga solishiga ishonish qiyin. Guruh murabbiysi bilimdon, obro'li, hamma hurmat qiladigan kishi bo'lsa, talabalar o'zlarini qiynayotgan ichki kechinmalari to'g'risida unga aytib, ko'nglini bo'shatgisi keladi, hayotda to'g'ri yo'lga tushishga intiladi. Ilmiy-pedagogik adabiyotlarda bunday

holatlar ko`rsatib o`tilgan.

Lekin bunday aloqa va munosabatlar juda murakkab hodisa: oliy o`quv yurtlarida bilimdon, obro`li, hurmatli murabbiylar oz emas, lekin talabalar o`z muammolarini ularga aytib, maslahat olishga har doim ham intilavermaydilar. Obro`li va hurmatli murabbiy ochiq ko`ngil, talabalar bilan muomalaga tez kirishadigan, ularga o`z maslahati, to`g`ri so`zi bilan, lozim bo`lsa amalda yordam ko`rsatadigan bo`lmog`i kerak.

Bunga amal qilish talaba-yoshlarni kasbiy-axloqiy shakllantirishga alohida e`tibor berishni taqozo etadi. Amaliyotda o`quv yurtining har bir o`qituvchisi murabbiylik ishiga tayyor deb hisoblanadi. Tajriba bu fikr unchalik to`g`ri emasligidan dalolat beradi. Yoshlarni ta'lim-tarbiya berish jarayonini chuqur o`zlashtirish kerak. Mashhur pedagoglarning hayot tajribasi shuni ko`rsatadiki, ular ta'lim-tarbiya sohasini umr bo`yi o`rgana borganlar. Talabalarni kasbiy-axloqiy shakllantirish haqida fikr yuritilganda bu omilga alohida e`tibor qaratish lozim. Chunki bo`lajak o`qituvchini kasbiy-axloqiy shakllantirish uchun murabbiyning o`zi yuksak darajada kasbiy, ma'naviy-axloqiy jihatdan shakllangan bo`lishi lozim. Bu tamoyil bo`lajak o`qituvchilarni to`g`ri tanlashni emas, ular ta'lim-tarbiyaviy ishlarni bajarishga muntazam tayyorlab borish zarurligini ham ko`rsatadi.

Yuqorida keltirilgan va tahlil etilgan kasbiy-axloqiy ta'lim-tarbiya tamoyillari o`quv-biluv jarayonida qo`llanadigan barcha holatlarni qamrab oladi. Demak, bo`lajak o`qituvchilarni kasbiy-axloqiy shakllantirishga tizimli yondashuv, faoliyatga asoslanib ta'lim-tarbiya berish, oshkoralik va o`zaro ishonch tamoyillariga asoslanish talabalarda pedagog odobi fazilatlarini shakllantirish jarayonining samarali, asosli bo`lishini ta'minlaydi.

XULOSALAR

1. O`rganilgan ilmiy-pedagogik manbalar shundan dalolat beradiki, bo`lajak o`qituvchilarda kasb odobi fazilatlarini shakllantirish hozirgi kundagi dolzarb muammo bo`lib, pedagogika fanida bu muammoning echimiga etarlicha e`tibor berilmagan.

2. Talabalarga kasbiy-axloqiy ta'lim-tarbiya berishni samarali tashkil etish uchun, avvalo, o'qituvchi odobi fazilatlarini shakllanishining modelini yaratish lozimligi ayon bo'ldi; kasbiy-axloqiy ta'lim-tarbiya jarayonining sub'ekti bo'lgan talabalar orasida tadqiqot o'tkazib, ularning real tarbiyalanganlik darajasi haqida to'g'ri, ishonchli, axborotlarni to'plash lozim degan qarorga keldik; so'ngra ta'lim-tarbiya ishlarining tegishli shakl-vosita, usullarini tanlash aniq va izchil qo'llash talab etiladi.

3. Oliy o'quv yurtining asosiy ta'lim-tarbiyaviy vazifalaridan biri talabalarda kasbiy faollikni shakllantirishdan iborat. U har bir oliy o'quv yurtida talaba egallaydigan kasb va ta'limning mazmuni bilan bog'liq holda tashkil etiladi.

4. Talabalarda pedagog odobi fazilatlarini shakllantirish o'quv yurtida barcha tarbiyaviy ishlarni ilmiy asosda tashkil etish; kasbiy-axloqiy ta'lim-tarbiya jarayonini muntazam takomillantirib borish bilan bog'liq.

5. O'quv yurtida ta'lim-tarbiya jarayonini boshqarishni ilmiy asosda tashkil etish bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy-axloqiy tarbiyalanganlik darajasini yuqori ko'taradi, maktabda samarali ishlash uchun zarur bo'lgan kasbiy-pedagogik sifatlarni, muhim axloq-odob fazilatlarini o'stiradi; ma'naviy-axloqiy jihatdan pok, o'quvchilarni sevadigan, ularning qalbiga yo'l topa oladigan, ta'lim-tarbiyaviy ishlarni bajara olish malakasi, ko'nikmasiga ega bo'lgan mutaxassislarni tayyorlashga imkon yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqbol va taraqqiyot yo'li. T.: O'zbekiston, 1992, 78 b.
2. Karimov I.A. O'zbekistonning siyosiy ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari. (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining birinchi majlisidagi ma'ruza. 1995 yil 23 fevral). T.: O'zbekiston, 1995, 74 b.
3. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi qonuni. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. T.: 1998, 20-29-b.
4. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. T.: Sharq, 1998, 30-61-betlar.
5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 5 yanvardagi 5-sonli «Uzluksiz ta'lim tizimi uchun davlat ta'lim standartlarini ishlab chiqish va joriy etish to'g'risida»gi qarori. Ta'lim taraqqiyoti. №1. T.: Sharq NMK.1998, 31-32-betlar.
6. O'zbekistonda umumiy o'rta ta'lim kontseptsiyasi. Xalq ta'limi. 1992, . № 2. 9-18. B.
7. O'zbekiston Respublikasida umumiy o'rta ta'lim to'g'risida Nizom. Xalq ta'limi, 1998 №4, 4-11 - B.
8. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi to'g'risida Nizom. Xalq ta'limi, 1998. №4, 12-20 - B
9. O'zbekiston Respublikasi umumiy o'rta ta'lim to'g'risida Nizom. Ma'rifat. 1998 23 may. 2 - b.
10. Abdulkarimov H., Isoqov I. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarga asoslangan ta'lim jarayonida o'qituvchi shaxsining o'rni. Ilg'or pedagogik texnologiyalar (tajribalar, muammolar, istiqbolli yo'nalishlar). Xalqaro ilmiy-amaliy konferentsiya matnlari. qarshi: 2001, 308-309-betlar.
11. Azizxo'jaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. T.: 2003, 174 b.
12. Azizxo'jaeva N.N. O'qituvchi mutaxassislarni tayyorlash texnologiyasi. T.: «Nizomiy TGPU». 2000, 52 b.

13. Mahkamova M. Bo`lajak tarbiyachilarning muloqot madaniyatini shakllantirish. Pedagogika fanlari nomz.ilmiy darajasini olish uchun diss. avtoreferati. Toshkent. 2002, 21 bet.
14. Nishonova S. Komil inson tarbiyasi. Toshkent. Istiqlol. 2003, 224b.
15. Ochilov M.O. Muallim qalb me'mori. T.: O`qituvchi. 2001., 429 b.
16. Ochilov M. Ochilova N.M. O`qituvchi odobi. Toshkent, "O`qituvchi", 1997, 136 b.